



Postda Ha nocty

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

O'zbekiston
Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi
nashri

2025-yil 20-noyabr
payshanba

№ 47 (4741)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

Jizzax viloyati

«OQBULOQ» OSOYISHTALIGINING SIRI



3 ming 250 nafardan ortiq aholi istiqomat qiladigan ushbu mahallada huquq-tartibotni ta'minlashga mas'ul bo'lgan Zarbdor tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori, kapitan Mansur Qarshiyev jinoyatlar sodir etilishiga yo'l qo'ymayapti. Tabiiyki, profilaktika inspektorining asosiy e'tibori ichki ishlar organlarida hisobda turadiganlar, probatsiya xizmati nazorati ostidagilar, muqaddam sudlanganlarga qaratilgan.



JASORAT YURAKDA TUG'ILADI

YUKSAK MUKOFOT SOHIBLARI

2025-yil 16-may. O'z xizmat vazifasini bajarayotgan yo'l harakati xavfsizligi xizmati inspektori, safdor Avliyo Abbosov hujjatsiz transport vositasini boshqarayotgan fuqaroni aniqladi. Avtomashinani jarima maydonchasiga olib borayotgan paytda inspektorning qonuniy talabiga bo'ysunmasdan, undan qochishga uringan haydovchi avtomobilini kuch bilan jarima maydonchasining darvozasiga urib, uni buzib yubordi. Xodim haydovchini to'xtatishga urindi. Lekin u to'xtash o'rniga, avtomobilidagi pichog'ini olib, inspektorga tashlandi.



YUKSAK MUKOFOT SOHIBLARI

JASORAT YURAKDA TUG'ILADI

(Davomi.
Boshlanishi 1-betda.)

Avliyo jarohatlangan bo'lsa-da, vazifasini ado etish va hujumni to'xtatish uchun kurashni davom ettirdi. Ammo u jiddiy jarohat olib, shifoxonaga yetkazildi. Haydovchi darhol qo'lga olindi va huquq-tartibot organlariga topshirildi.

Avliyo Abbosovning bu jasorati hamma uchun haqiqiy o'rnak bo'ldi. Xizmatga bo'lgan sadoqati, o'zini xavf ostiga qo'yib bo'lsa ham, jamiyat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan intilishi uning haqiqiy qahramonligini ko'rsatadi.

Namangan viloyati IIB JXX YHXB bo'linmalari saf bo'linmalari yo'l-patrul xizmati batalyoni uchinchi safarbar guruhi YPX inspektori, safdor Avliyo Abbosovning «Jasorat» medali bilan taqdirlanishi uning xizmatiga berilgan haqiqiy rag'bat bo'lib, o'z navbatida, qahramonimizni yanada yuqori

maqsadlarga erishish uchun ilhomlantirmoqda.

Avliyo ichki ishlar organlaridagi faoliyatini 2006-yilda Kosonsoy tumani IIB ta'minlash bo'linmasida boshlab, patrul-post xizmati, jamoat tartibini saqlash va yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohalarida katta tajriba orttirdi.

U joriy yilda 1500 dan ortiq yo'l harakati qoidabuzarliklarini, xususan, 986 nafar haydovchining qo'pol qoidabuzarliklarini, 129 nafar haydovchining yo'l belgilari qoidalarini buzganini, 19 nafar haydovchining mast holatda avtomobil boshqarayotganini aniqladi. Bu ko'rsatkichlar Avliyoning har bir holatda tez va aniq qaror qabul qilish qobiliyatini ko'rsatadi.

Avliyo Abbosovga berilgan mukofot nafaqat uning jasoratini, balki xizmat mas'uliyatini qadrlashining yorqin ifodasi bo'ldi.

Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

KASB FIDOYISI

«OQBULOQ»
OSOYISHTALIGINING SIRI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

U joriy yilning o'tgan davrida 4 nafar xotin-qizga himoya orderi rasmiylashtirib, 174 ta ariza va shikoyatni o'rganib, muammoli masalalarni hal qilish choralari ko'rdi.

Kapitan Mansur Qarshiyev Anora opaning (ismi o'zgartirildi) tashvishlaridan yaxshi xabardor. Qizini uzatgandan buyon boshi tashvishdan chiqmaydi. Kunda-kunora bo'ladigan janjallar tufayli qizi ota uyiga qaytib kelgan.

Telefondan yangrayotgan hayajonli ovozdin sezidiki, yordamga shoshmasa bo'lmaydi. U yetib borganida qo'lida oshxona pichog'ini tutgan mast kuyov uyni ichkaridan qulflab olgan qaynonasi Anora opa va rafiqasiga o'shqirayotgandi. Maqsadi – turmush o'rtog'ini olib ketish. Yigit ichki ishlar organi xodimini ko'rish bilan pichoqni o'ziga qaratib, joniga qasd qilishini bildirdi. Profilaktika inspektori esa, unga kimnidir pichoqlash yoki mushtumzo'rlik bilan hayotini o'nglay olmasligini tushuntira boshladi. Bir



necha daqiqadan so'ng kapitanning gap ohangidagi ohistalik yigitning ham yuragiga ko'chdi va qo'lidagi pichog'ini topshirdi. Voqea erkakning narkologiya dispanseriga davolanish uchun joylashtirilishi bilan yakun topdi.

Lavhamiz qahramonining ijtimoiy profilaktika borasidagi ko'rsatkichlari ham e'tiborga molik. Jumladan, u tomonidan hokimlik, tashkilot va korxonalar mas'ullari hamda mahalla oltiligiga kiritilgan xulosalar asosida joriy yilning o'tgan davrida 147 kishi ish bilan ta'minlandi. 60 nafar fuqaro kasbhunarga o'qitildi. 247 kishiga

ijtimoiy yordam ko'rsatildi. Qolaversa, 2 nafar qidiruvdagi shaxsni qo'lga oldi.

Mansur Qarshiyev sport sohasida ham hamkasblariga ibrat bo'layotir. Jumladan, joriy yilning fevral oyida uyushtirilgan sambo musobaqasining viloyat bosqichi, shuningdek, mart oyida viloyat IIB boshlig'i kubogi uchun tashkil qilingan milliy kurash musobaqasida oltin medallar sohibi bo'ldi. «Eng yaxshi profilaktika inspektori» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida ham birinchi o'rinni egalladi.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

XIZMATLARDA

IZLAR ORTIDAN «QUVIB»

Joriy yil 26-fevralga o'tar kechasi Urganch shahri yana bir jinoyatning sukutli guvohi bo'ldi. «Al-Xorazmiy» ko'chasidagi xonadon o'sha kuni egasiz qolgan, o'g'irlangan buyumlar soni esa ko'p emasdi, ammo har birining qiymati yuqori: ikkita tilla uzuk, bitta brilliant qo'shilgan uzuk, bitta tilla zanjir va erkaklar qo'l soati.

Bu jinoyat ortida yana bir narsa – jinoyatchining o'zi ham sezmagani, lekin voqea joyida qoldirib ketgan izlar yashirin edi. O'sha izlar butun voqeani ochadigan, jinoyat tafsilotini so'zlaydigan yagona «til»ga aylandi.

Voqea joyida ish boshlagan Urganch shahar IIOFMB Ekspert-kriminalistika guruhi katta eksperti, podpolkovnik Azamat Nurmetovning e'tiboridan hatto mayda detallar ham chetda qolmadi. Negaki, tajribali ekspert uchun javonning qiya ochilgan tortmasi ham, uning ustidagi chetga surilgan quti ham bejiz emas. Bino-barin, uning shunday qoidasi bor: «Jinoyatni odam sodir etadi – u esa izzsiz yashay olmaydi». Shu izlarni topish, ishdagi muvaffaqiyatning yarmini tashkil qiladi.

Xullas, podpolkovnik A. Nurmetov javon tortmasidan 9 ta qo'l-barmoq iziga o'xshash izlarni aniqladi. Bu izlar



Suratda: katta leytenant Temur Po'latov xizmat paytida.

jinoyatchining eng katta xatosi edi. Shuningdek, o'g'irlangan zargarlik buyumlari turgan quti ham ekspertiza uchun olindi.

Jinoyatni ochish xorijning detektiv filmlari kabi bo'lmashligi mumkin, lekin ekspertlarning taroziday aniq ishlashi har qanday syujetni real hayotga aylantiradi. Olingan izlar viloyat IIB EKM Biometrik identifikatsiya qilish guruhiga topshirildi. Bu – jinoyatlarni izlar orqali fosh etishda eng muhim bo'limlardan biri. Bu yerda har bir iz, har bir chiziqning, har bir burilishning o'z

tarixi bor. Barmoq izlari – bir umr o'zgarmaydigan shaxsiy «pasport».

Guruh bosh eksperti, podpolkovnik Liliya Zalilova va katta ekspert, katta leytenant Temur Po'latov kiritishdi. Avvalo izlar kompyuter tizimiga joylashtirildi, nuqta, burilish, kesishish kabi yuzlab parametrlar solishtirildi. Har bir iz, har bir chiziq minglab o'xshashlari bilan qiyoslandi. Bu jarayon nafaqat texnik, balki psixologik sinov ham edi. Chunki bir millimetrluk nuqson noto'g'ri xulosa berishi mumkin. Shuning uchun ekspertlar natijani ikki marta tekshirishdi.

Nihoyat, tizim bir nechta moslikni qayd etdi. Ekspertlar ularni qo'lida, ko'z bilan, lupada yana bir bor o'rganishdi. Va o'sha iz o'sha shaxsga tegishli ekani tasdiqlandi. Bu jinoyat ochilganini anglatardi. O'g'ri xonadonda yurgan, buyumlarni tekshirgan, tortma tutqichiga tegib, qutini ko'targan. U, ehtimol, buni yuz marta qilgan. Ammo barmoq izini yashirishni o'ylamagan. Bu iz esa unga qaytib keladigan yagona chiziqqa aylandi. Podpolkovnik A.Nurmetov izni topdi. Ekspertlar izni ochdi. Tizim esa shaxsni aniqladi. Natijada jinoyatning butun sxemasi bir-biriga ulana boshladi: kirilgan joy, vaqt, harakatlar, o'g'irlangan buyumlar, qoldirilgan izlar va jinoyatni sodir etgan shaxs. Tergovning keyingi bosqichlari esa ushbu faktlarga asoslanib davom ettirildi.

Xulosa shuki, jinoyat fosh etishdagi eng kuchli qurol – professionalizm. Urganch shahridagi ushbu jinoyat yana bir bor shuni isbotladiki, jinoyatchi har qanday ehtiyotkorlikni o'ylashi mumkin, lekin mutaxassisning ko'rish qobiliyatidan yashirina olmaydi. Barmoq izi – mayda emas, balki eng kuchli dalil va har bir ekspert – jinoyatni jim yechadigan, biroq eng muhim bo'g'inini topadigan inson. Aynan ular tufayli bir kecha sodir bo'lgan jinoyat qisqa vaqtda fosh qilindi.

Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

XALQARO FORUM

JINOYATCHILIKKA QARSHI GLOBAL KURASHISHDA HAMKORLIK

Ko'ha va hamisha navqiron Samarqand shahrida «Jahon kriminologiyasining ilg'or tajribalari» xalqaro forumi bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti tomonidan tashkil etilgan ushbu anjumanda Vengriya, Qatar, Hindiston, Xitoy, Belarus, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasining politsiya idoralari hamda kriminologik tadqiqot tuzilmalari rahbarlari, shuningdek, BMTning Jinoyat va narkotiklar bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy boshqarmasi (UNODC), Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (TIKA), Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari ishtirok etishdi.



Ikki kunlik anjuman doirasida ishtirokchilar Samarqand shahridagi mahalla yettilligi ish faoliyati, IIVning xavfsiz turizmni ta'minlash hamda kiberjinoyatlarga qarshi kurashish bo'linmalari xizmat jarayonlari bilan tanishtirildi.

– Mazkur forum dunyo bo'ylab jinoyatchilikning o'sib borayotganini hisobga olgan holda bugungi kunda juda ahamiyatli va foydali bo'ldi. O'zbekistonda jinoyatchilikning oldini olish modeli haqida gap ketganda, men doim O'zbekistonning profilaktik kriminalistika, jinoyatlarning oldini olish va ularning sabablarini bartaraf etish tizimi juda yuqori pog'onada turganligini ta'kidlayman. Chunki O'zbekiston jinoyatchilikning oldini olishda o'ziga xos, noyob mahalla tizimidan foydalanadi. Bu tizim dunyoning eng yaxshi modellari biri hisoblanadi, unda faqat davlat organlarigina emas, balki fuqarolar ham jinoyatlarning oldini olishda faol ishtirok etishadi, – deya e'tirof etdi BMTning Jinoyat va narkotiklar bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy boshqarmasi Axborot xizmati boshlig'i Florez Salome Siyerra Franzoni.

Forumda qator davlatlar politsiya va tadqiqot tuzilmalari bilan hamkorlikni tubdan kuchaytirishga qaratilgan

hujjatlar xususan, Vengriya, Hindiston, Rossiya, Qatar, Turkiya, Xitoy, Belarus, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi politsiya idoralari va kriminologiya sohasidagi tadqiqot tashkilotlari bilan xalqaro hamkorlik protokollari imzolandi. Ekspertlarni o'qitish, ilmiy-tadqiqot dasturlari va axborot almashinuvini yo'lga qo'yish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Anjuman doirasida TIKA bilan grant va texnik ko'mak bo'yicha hamkorlik ham yo'lga qo'yildi. Alohida uchrashuvlarda Turkiya tomonidan O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun grant mablag'larini jalb qilish, institut infratuzilmasini takomillashtirish, zamonaviy kriminologik laboratoriya va tahlil texnologiyalarini joriy etish, qo'shma o'quv dasturlari va seminarlarni moliyalashtirish yuzasidan kelishuvlar muhokama qilindi.

– Ushbu anjuman hamkorlikdagi faoliyatimizni yanada jonlantirishda katta ahamiyatga ega. Kriminologiya sohasida xalqaro hamkorlik zarur. Bugungi kunda bu borada juda ko'plab tadqiqotlar mavjud, ayniqsa kiberxavfsizlik sohasida. Shuning uchun xalqaro hamkorlikning ahamiyati ortmoqda. Biz

bu tashabbusning amalga oshirilayotganidan mamnunmiz, – deya ta'kidladi Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (TIKA) vakolatxonasi boshlig'i Yesin Ajar Ergin.

Anjuman doirasida Rossiya Federatsiyasi IIVning Butunrossiya ilmiy-tadqiqot instituti, Ural davlat yuridik universiteti, Vengriyaning «Ludovika» Davlat xizmati universiteti huquqni muhofaza qiluvchi organlar fakulteti, Turkiya Milliy politsiya akademiyasi bilan ikki tomonlama xalqaro hamkorlik o'rnatish borasida memorandum imzolandi.

– Biz O'zbekiston Kriminologiya tadqiqot instituti bilan hamkorlikda faoliyat olib boramiz. Bu sohani yanada rivojlantrishni rejalashtirganmiz. Biz eng yaxshi xalqaro tajribalarni o'rganib, amaliyotga tatbiq etamiz. Mening fikrimcha, O'zbekistonda kriminologiya sohasida nazariya juda yuqori darajada rivojlangan. Amaliyot ham muhim. Bu yo'nalishda birgalikda ishlaymiz. Agar qandaydir muammolar yuzaga kelsa, uni bartaraf qilib, kelgusida hamkorlikni davom ettiramiz. Sohada ijtimoiy tadqiqotlarni amalga oshiramiz, unga hamkasblar, mutaxassislar va talabalarni jalb qilamiz, – deydi «Ludovika» Davlat xizmati universiteti huquqni

muhofaza qiluvchi organlar fakulteti prorektori Gabor Kovach.

Anjumanda qayd etildiki, jinoyatchilikning oldini olish va uni tadqiq qilishda Hindiston, Vengriya, Xitoy, Belarus, Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iz Respublikasi politsiyalari hamda tadqiqot tashkilotlari bilan qo'shma loyihalar ishga tushirilib, ilgari suriladigan tashabbuslar kelgusida kriminologik tadqiqotlarning ilmiy va amaliy samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Forum doirasida 10 dan ortiq davlatlarning politsiya idoralari, kriminologiya sohasidagi tadqiqot tashkilotlari bilan xalqaro hamkorlik o'rnatildi. Shuningdek, Qatar bilan xodimlar tajriba almashinuvi, jinoyatchilikni birgalikda tadqiq qilish bo'yicha qo'shma loyihalar ishga tushirish masalasi ko'rib chiqildi.

Mazkur forum jinoyatchilikka qarshi global miqyosda kurashishda xalqaro hamkorlikning yangi bosqichini boshlab berdi. Forum ilmiy amaliyot, ekspert tajribasi va o'zaro hamkorlikning birlashgan platformasi sifatida yuksak baholandi.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

YOSHILAR – KELAJAK BUNYODKORI

«YASHIL» TOMON DADIL QADAMLAR



Katta leytenant Otabek Qahhorov Piskent tumanidagi 3 ming 500 nafardan ziyod aholi istiqomat qilayotgan «Mingtepa» mahallasida profilaktika inspektori lavozimida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, osoyishtalikni ta'minlash borasida ibrat ko'rsatib kelmoqda.

– Bundan oldin tumandagi «Istiqlol» MFYda ham shu yo'nalishda xizmat qilganman. Mahalla «yashil» toifada edi. Endi esa «Mingtepa»ni «yashil»ga olib chiqishimiz zarur. Shu maqsadda mahallaning mas'ul xodimlari va faollari bilan yakdillikda ishlayapmiz, – deydi profilaktika inspektori.

Mahallada ichkilikka ruju qo'ygan, giyohvandlikka moyil shaxslarni nazoratga olish, ishsiz fuqarolar, ularning bandligini ta'minlash yo'nalishida e'tiborga molik ishlar olib borilyapti.

Hozirda mahallada 8 nafar shaxs probatsiya hisobida turadi. Aholining ishsizligiga imkon qadar barham berish maqsadida 3 ta ishlab chiqarish korxonalari faoliyat yuritmoqda. 70 nafar xoriigga chiqib ketgan shaxs va ularning oila a'zolari bilan doimiy aloqa o'rnatilgan.

Katta leytenant Otabek Qahhorov bo'sh vaqtida o'zbek va jahon adabiyoti durdonalarini o'qishga oshiqadi. Bundan tashqari, kasbiy faoliyatida jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi kundalik voqealar uning o'z yo'nalishi bo'yicha tajribasi yanada oshishiga xizmat qilmoqda. Yosh xodim sohada ilk yo'nalishlar bergan murabbiysi, kapitan Sunnatilla Qarshiboyevning xizmatlarini ham doim mamnuniyat bilan qayd etadi.

Abror POYONOV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.



Грани мастерства

ХАРАКТЕР, ЗАКАЛЕННЫЙ СЛУЖБОЙ



Профессиональную деятельность в системе ОВД капитан Элёр Тогаев начал в 2017 году дознавателем в следственном отделе УВД Мирзо-Улугбекского района города Ташкента. В настоящее время является старшим инспектором опорного пункта № 416 ОВД № 2 УКД ОВД Юнусабадского района столицы.

гами принимаем меры к укреплению правопорядка. На особом контроле 32 лица, состоящие на профилактическом учете, а также 9 подучетных отдела пробации. С ними проводим индивидуальную работу – стремимся

Хаккулова и другие принимают участие в мероприятиях по ранней профилактике правонарушений.

Укреплению в махалле порядка способствуют и современные технологии. Результативно использование возможностей компьютерной системы АБД, установка видеокамер в оживленных местах, у объектов социального назначения.

– Недавно в рамках концепции «Безопасный город» усовершенствована инфраструктура по улице Ахмада Дониша – улучшено освещение, установлены многофункциональные камеры видеонаблюдения, применяемые для мониторинга трафика, пешеходных зон. Камеры инте-

– Территория ответственности – махалла Янгибог, – говорит наш собеседник. – Здесь в 38 многоквартирных домах проживает свыше 7,6 тысячи человек. Во взаимодействии с колле-

оградить от неверного шага, не допустить рецидива.

По словам капитана Э. Тогаева, председатель МСГ Саид Акилов, молодежный лидер Достон Ихматуллаев, активистка Барно

грированы в центр оперативного управления ГУВД, – подчеркивает капитан Э. Тогаев.

Коллеги отзываются об Элёре как о неугомонном человеке, чей характер отточен образцовой службой.

– Нас так воспитали, – делится капитан. – С благодарностью вспоминаю своего наставника подполковника Беруний Садинова. Он не только щедро делился опытом, но и прививал добросовестность при выполнении порученного дела.

Сегодня капитан Элёр Тогаев сам наставник. Среди его учеников старший лейтенант Эркин Бердияров, лейтенант Жавохир Тулаев, которые служат с ним плечом к плечу. Многому учатся у него и курсанты Академии МВД, которые в рамках системы дуального обучения постигают на базе опорного пункта тонкости профессии.

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.

■ Республика Каракалпакстан

БЕСПЕЧНОСТЬ ПРИВОДИТ К ТРАГЕДИИ

Железнодорожный транспорт традиционно считается одним из самых удобных. Стальные магистрали называют кровеносной системой экономики. Обеспечение бесперебойного движения и безопасности на железной дороге остается важнейшей задачей.

– На территории обслуживания вдоль железнодорожной линии расположены 10 махаллей и 8 общеобразовательных школ. Каждую среду совместно с железнодорожниками проводятся мероприятия в рамках акции «Безопасная железная дорога», а по четвергам – «День профилактики правонарушений». Выявленные нарушения обсуждаются с участием жителей, – говорит старший инспектор группы профилактики правонарушений отдела обеспечения безопасности станции Ходжейли Управления по обеспечению безопасности на транспорте Республики Каракалпакстан капитан Танирберген Джаксылыков.

Однако несмотря на принимаемые правоохранительными органами меры по предупреждению правонарушений в этой сфере, отдельные граждане продолжают совершать противоправ-



ные действия. Так, недавно несовершеннолетний житель Турткульского района разложил мелкие камни на рельсах проходящего через район поезда, создав угрозу безопасности движения. Он заснял свои действия

на мобильный телефон и опубликовал ролик в социальных сетях. Сотрудники оперативно установили личность подростка, а в отношении его родителей применили меры административной ответственности.

По данным Управления по обеспечению безопасности на транспорте Республики Каракалпакстан, с начала года выявлено свыше 2 тысяч различных нарушений, допущенных гражданами. В 21 случае, связанном с

несовершеннолетними, к административной ответственности привлечены их родители. Наиболее распространенными являются переход путей в неустановленных местах, выпас скота вблизи железной дороги.

К сожалению, беспечность нередко заканчивается трагедией. С начала года зарегистрированы 6 несчастных случаев, в результате которых погибли 4 гражданина, включая детей. Один из таких случаев произошел в Элликалиновском районе: трехлетний ребенок, проживающий возле станции Мискин, играя с другими детьми, выбежал на пути и погиб под колесами поезда.

Причиной большинства трагедий становится элементарное несоблюдение правил. Так, в августе текущего года пассажирский поезд направления «Кунград–Ташкент», следуя по территории Ходжейлийского района, сбил гражданина Т. Я., переходившего пути в неположенном месте.


Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.



TADBIRKOR – ELGA MADADKOR

HALOL MEHNAT INSONNI ULUG'LAYDI,

– deydi iste'fodagi mayor Alisher Salbayev



Farg'ona shahrining «Zarbdor» mahallasida istiqomat qiluvchi ichki ishlar organlari faxriysi, iste'fodagi mayor Alisher Salbayevning jonsarakligini ko'plab yoshlarga ibrat qilib ko'rsatsa arziydi. Lavhamiz qahramoni ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini tergov sohasida boshlagan. Keyinchalik ekspert-kriminalistika xizmatida faoliyat olib borib, 2004-yilda ehtirom bilan pensiyaga kuzatildi.

Tabiatan harakatchan bo'lgan Alisher Salbayev pensiyaga chiqqach, dastlab o'zi yashaydigan «Zarbdor» mahallasida uch yildan ziyod mahalla raisi bo'lib ishladi. Mahallani obodonlashtirish borasida xayrli ishlarni amalga oshirdi, ko'plab kommunal muammolarni hal qildi, xalqning yaxshi-yomon kunida boshqosh bo'ldi.

Raislikni boshqa hamkasbiga topshirgach, advokatlik faoliyatini yo'lga qo'ydi. Shu bilan birga, yurtimizda tadbirkorlik faoliyatiga keng imkoniyatlar berilayotganidan samarali foydalanib, yakka tartibdagi tadbirkorlikni boshladi.

– Bedana boqib, uning go'shti va tuxumidan mo'may daromad topish mumkinligini maslahat berishgach, shu ishga qo'l urganimga 19 yil bo'ldi, – deydi tinib-tinchimas faxriy. – Dastlab 100 bosh bedana parvarish qilgan bo'lsak, yillar davomida faoliyatimiz kengayib, bugun ularning soni 7000 boshdan oshib ketdi. Hozirgi kunda bedana go'shti va tuxumlarini Farg'ona viloyatidagi barcha supermarket va savdo do'konlariga tarqatamiz. Yaqinda inkubator tashkil qilib, bedana tuxumidan jo'ja ochirishni ham yo'lga qo'ydik. Qisqasi, sira kam bo'lganimiz yo'q, ro'zg'orimizga baraka kirdi.

Faxriyning tomorqasida mo'jazgina issiqxonasi ham bor. Unda limon yetishtiradi. Limon ostiga esa ko'katlar, ziravor va poliz ekinlari ekadi, mehnatdan sira qochmaydi.

– Halol mehnat insonni ulug'laydi, – deydi faxriy suhbatni davom ettirib. – «Imkonim yo'q, bu ishni qilolmayman», deb bir joyda depsinib,

faqat oylik yoki pensiyaga ko'z tikib o'tirgan odamlarni ko'rsam ajablanaman. Qo'l-oyoqlarimiz butun, to'rt muchamiz sog' bo'lganidan keyin imkoniyatni izlab topish kerak. Jannatmonand yurtimizda halol rizq topish uchun imkoniyatlar bisyor.

Iste'fodagi mayor Alisher Salbayev ichki ishlar organlarining tergov sohasida ishlab, boy amaliy tajriba to'plagan sababli bugun Farg'ona shahridagi eng mohir advokatlardan biri sifatida e'tirof etiladi. U insonlarga huquqiy jihatdan yordam berishni ham sharafligini kasb, ham savobli amal, deb hisoblaydi. Chunki undan huquqiy yordam va maslahat so'rab keladiganlar, qo'ng'iroq qiladiganlar juda ko'p. Hammasiga qonun doirasida, imkon qadar yordam qo'lini cho'zishga harakat qiladi, huquqiy maslahatini ayamaydi.

Turmush o'rtog'i bilan hamjihatlikda 6 nafar farzandni komil inson qilib tarbiyalab, bugun 10 nafardan ortiq shirindan-shakar nabiralarning sevimli bobosi bo'lgan lavhamiz qahramoni, ustozlari Bahodir Zilyayev, Shukurullo Ro'zmatov, Fayzullo Jahonov, Aminjon Toshxo'jayev kabi soha fidoyilarining nomini hamisha hurmat bilan tilga oladi, ularni tez-tez yo'qlab turadi. Yosh xodimlar bilan suhbatlashganida ham, albatta, yaxshi ustozlarning etagini tutish, ular ko'rsatgan yo'ldan yurish kerakligini maslahat beradi.

Abdusotit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

Biz korrupsiyaga qarshimiz!

ORAGA PORA TUSHDI...

Mutaxassislar ta'kidiga ko'ra, mast insonning o'ylash tezligi, xatti-harakatlari sekinlashadi, voqelikka aniq baho bera olmaydi. Ammo, afsuski, ayrimlarni mazkur qoidabuzarlik oqibatlarini, xususan, haydovchi va piyodalar hayoti va sog'ligiga katta xavf tug'ilishi mumkinligi cho'chitmaydi. G'allaorol tumanida yashovchi B.N. shundaylardan biri bo'lib chiqdi.

Uning PPX xodimlarini ko'rishi bilan oq avtoullovini to'xtatgani soha vakillari e'tiborini tortmasdan qolmadi. Muloqot jarayonida esa mastligi yaqqol sezildi. YPX inspektorlari alqotester orqali B.N.ning spirtli ichimlik ta'sirida ekanini aniqladi. Ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirilib, «Cobalt» jarima maydoniga qo'yiladigan bo'ldi.

Voqeaning bunday rivoji haydovchining hushini uchirdi va holat yuzasidan hujjatlarni rasmiylashtirayotgan viloyat IIB JXX JTSB PPX batalyoni tumanlararo patrul-post xizmati otryadi inspektori, safdor Subhonqul



Murtazayevga 500 AQSH dollari miqdorida pora taklif qildi. Bu pul holatga oid hujjatlarning G'allaorol tumani IIB huzuridagi tergov guruhiga o'tkazilmasligi hamda avtoullovning jarima maydonidan chiqarilishiga omil bo'lishi kerak edi.

Inspektor pora berganlik uchun qanday javobgarlik belgilanganini B.N.ga tushuntirdi. Ammo fuqaro pora tiqishtirishda davom etdi. Bu jihat safdor S.Murtazayevni holat yuzasidan viloyat IIB rahbariyatiga axborot berishga undadi...

IIV SHXBB Jizzax viloyati bo'yicha bo'limi hamda G'allaorol tumani prokuraturasi hamkorligida o'tkazilgan tezkor tadbir davomida xodimga 500 AQSH dollarini bergan B.N. ushlendi.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.



Меҳнатга лаёқатсиз ва ёлғиз кексалар, ногиронлиги бўлган шахслар ҳамда аҳолининг ижтимоий жиҳатдан эҳтиёжманд бошқа тоифаларининг ҳуқуқлари давлат ҳимоясидадир.

Давлат аҳолининг ижтимоий жиҳатдан эҳтиёжманд тоифаларининг турмуш шарт-шароитлар яратишга ҳамда уларнинг асосий ҳаётий эҳтиёжларини мустақил равишда таъминлаш имкониятларини кенгайтиришга қаратилган чораларни кўради.

Давлат ногиронлиги бўлган шахсларнинг ижтимоий, иқтисодий ва маданий соҳалар объектлари ва хизматларидан тўлақонли фойдаланиши учун шарт-шароитлар яратади, уларнинг ишга жойлашишга, таълим олишига кўмаклашади, уларга зарур бўлган ахборотни тўққинликсиз олиш имкониятини таъминлайди.

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, 57-модда.

ФАХРИЙЛАР – ФАХРИМИЗ

УММОНЛАРНИ ТОМЧИЛАР ЯРАТАДИ

Инсонни муҳит тарбиялайди, деганларича ҳам бор экан. Бўлмаса ҳаёлида минг бир орзулар билан вояга етган Хайрулло Хўжамбердиев ҳарбий хизматдаги йигитлик бурчини ўтаётган пайтида осойишталик посбони бўлишга қатъий аҳд қилармиди?!

– Ҳарбий хизматни 1983–1985 йилларда Монголияда ўтаганман, – дейди у биз билан суҳбат чоғида. – У ердаги тартиб-интизом, шароит, ҳаракат ва мақсад менга шу қадар қаттиқ таъсир қилдики, натижада «Ҳар қандай йигит киши, энг аввало, ўз Ватанини ҳимоя қилишга масъулдир!», деган қарорга келдим. Шу боис 1986 йили Қозоғистон Республикасининг Чимкент шаҳридаги ўрта-махсус милиция мактабига ўқишга кирдим. Илк хизмат фаолиятимни Бишкек шаҳридаги жазони ижро этиш муассасасида бошладим. Орадан икки йил ўтиб, 1990 йили Андижон шаҳридаги жазони ижро этиш муассасасига оддий ходим бўлиб ишга келдим. Кейинчалик Андижон шаҳар ва Асака туманлари ички ишлар бўлимларидаги фаолияти давомида юзлаб жиноятларни очишда иштирок этди. Бугунги кунда истеъфодаги полковник Х. Хўжамбердиев ИИБ Андижон академик лицейида ёшларга сабоқ бериб келмоқда. – Устоз ҳар бир мавзуга масъулият билан ёндашади, – дейди



ўқувчи Шерзодбек Ҳайдаров. – Дарсликдаги сатрларни ҳаёт билан шу қадар уйғунлаштирадими, бу таълим сифатини оширишга хизмат қилади. Шу боис ўқишдан ташқари пайтларда ҳам устознинг даврасида жамланамиз. У кишининг ҳар бир сўзи бизни метин иродали, мард ва жасур бўлишга ундайди.

– Умримдан, ҳаётимдан мамнунман, – дейди у миннатдорлик балққан нигоҳини олисларга тикаркан. – Тасаввур қилинг, ҳар тонг уйғониб, кимдир ўқишга, бошқаси ишга отланади. Яна биров яқинларининг дийдорига ошиқса, қанчадан-қанча ҳамюртларимиз саёҳатга, зиёратга йўл олишади. Буларнинг барчаси юртимиздаги тинчлик мевасидир. Мана шундай осуда ҳаётни барпо этишда озми-кўпми ҳиссам бор-

лигидан қувонаман. Ўз вақтида билимимни, кучимни, тажрибамни шу мақсад йўлида сарфлаганимдан мамнунман. Фарзандларимиз эришаётган ютуқларни кўрганимда фахрланаман. Бугунги кун биз орзу қилган, биз кўрмоқчи бўлган кундир, аслида!

Уммонлар қанчалар катта бўлмасин, барибир томчилардан таркиб топган. Шундай экан, биз улкан денгиз, тўлқин бўлишдан аввал муносиб томчига айланмоғимиз даркор. Зеро, лоақал кўлга етиб бормаган томчилар қанча... Бу менинг Хайрулло Хўжамбердиев билан мулоқотимдан олган сабоғим бўлди.

Саминжон ҲУСАНЗОДА,
ўз мухбиримиз.

Андижон вилояти.

PROBATSIIYA XIZMATI

AVVALO O'ZIMIZGA BOG'LIQ

Jinoyatlarning kelib chiqishi-ga turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, shu jumladan, tevarak-atrofdagi nosog'lom muhit omil bo'lishi mumkin. Birinchi marotaba jinoyatga qo'l urganlar orasida o'z xatti-harakatining oqibatini anglab yetmagan shaxslar ham uchraydi.

Joriy yil boshida bilib-bilmay jinoyatga qo'l urgan 62 nafar fuqaro Qonliko'l tumani IIB JXX Probatsiya guruhi hisobiga olingan edi. O'tgan vaqt mobaynida olib borilgan ishlar natijasida ularning 15 nafari o'z xatosini anglab, qat'iy tuzalish yo'liga o'tgani uchun muddatidan ilgari shartli ravishda ozod etildi.

Probatsiya guruhi xodimlari tomonidan mahkumlarning bandligini ta'minlash maqsadida hamkor tashkilotlar bilan birgalikda 10 marotaba mehnat yarmarkasi o'tkazildi. Natijada probatsiya hisobida turganlarning 21 nafari doimiy ishga joylashtirilgan.

Misol uchun, U.A ilgari o'g'rilik jinoyatini sodir etgani sababli ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlangan edi. Keyinchalik ushbu jazoning o'talmay qolgan qismi axloq tuzatish ishlariga almashtirildi. O'tkazilgan mehnat yarmarkasi davomida u «Aynazar Alekenov» MCHJ ga doimiy ishga joylashtirilgan.



Shuningdek, probatsiya hisobida turuvchi shaxslar bilan o'tkazilgan suhbatlar davomida ularning muammolarini hal etish choralari ko'rilmogda. Mahkuma T.T. muloqot chog'ida chorvachilik faoliyati bilan shug'ullanish istagi borligini ma'lum qiladi. Unga biznes-reja tuzishga yordam berilib, buning natijasida

bankdan 11 million so'mlik subsidiya olib berildi. U shu tariqa doimiy daromad manbayiga ega bo'ldi.

– Probatsiya guruhi hisobidagi ularning ijtimoiy-maishiy muammolarini aniqlash va bartaraf qilish, sog'lig'ini tiklash, kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlashga ko'maklashish borasida tizimli ishlar olib boryapmiz. Eng asosiysi, ularga jamiyat uchun foydali mehnat qilish afzalliklarini tushuntiryapmiz, – deydi Qonliko'l tumani JXX Probatsiya guruhi inspektori, mayor Ulasbek Seytbekov.

Darhaqiqat, kishi hayoti davomida turli-tuman sinovlarga duch keladi. Albatta, bunday holatlarda unga to'g'ri yo'l ko'rsatish, foydali maslahat berish, pand-u nasihat qilish va ko'maklashish kerak. Lekin bundan tegishli xulosa chiqarish, avvalambor, insonning o'ziga bog'liq.

Azamati PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATINING ASOSCHISI

(Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligi)

Jadidchilik harakatining asoschisi haqida so'z boshlashdan avval, aslida jadid kim, u qanday ma'noni ifodalashini anglash maqsadga muvofiqdir. Jadid – bugun ham, o'tmishda ham jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladigan, yangiliklarni hayotga tatbiq etishga, dunyoda tenglar ichra teng bo'lgan davlatni qurishga intiladigan, qiyinchiliklardan qo'rqmay, yangilik yaratuvchi insondir.

Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, atqoli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog, ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy ana shunday jasoratli shaxs bo'lgan. Uning ma'rifatparvarlik va ma'naviyat targ'ibotchisi sifatidagi g'oyaviy qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yilda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida dunyoga kelgan. U Ahmad Yassaviy sulolasidan bo'lib, otasi Behbudxo'ja, bobosi Solixo'ja va katta bobosi Niyozxo'ja o'z davrining nufuzli namoyandalari bo'lgan. Uning otasi islom huquqshunosligi bo'yicha yirik mutaxassis bo'lib, bu borada ko'plab kitob va risolalar yaratgan. Oiladagi bu muhit Mahmudxo'ja Behbudiyga ham o'z ta'sirini o'tkazadi, albatta. Bu haqda u o'z maqolalaridan birida otasi ta'lim bergani uning taqdirida muhim ahamiyat kasb etganini alohida qayd etadi.

Behbudiy adabiyot, tarix fanlari qatori, siyosatshunoslik bilan ham jiddiy shug'ullanadi. Ro'znoma va oynomalardan jahonda sodir bo'layotgan siyosiy voqealar bilan yaqindan tanishib boradi. Makkaga borish maqsadida arab tilini o'rganishga kirishib, islom tarixi va nazariyasi bilan shug'ullana boshlaydi. 1902-yilda Makkaga borib, xo'ja va mufti unvonlariga ega bo'lib qaytadi. So'ngra Qozon va Ufa shaharlarida bo'lib, Yevropa madaniyati bilan ham qiziqadi. O'sha davrdagi Qozon, Orenburgda chiqadigan arab imlosidagi jurnal va gazetalar bilan hamkorlik qiladi. Uning qator maqolalari mazkur jurnal va gazetalarda chop etila boshlaydi. Maktab, maorif, madaniyat, ma'rifatparvarlik g'oyalarining targ'iboti ushbu maqolalarning markazida turardi.

Xususan, qrim-tatar allomasi Ismoil Gaspirali (Gaspirinskiy) va u bosh muharrir bo'lgan «Tarjumon» gazetasi Mahmudxo'ja Behbudiyning buyuk ma'rifatchi va o'zbek milliy jadidchilik yo'nalishining otasi darajasiga ko'tarilishida muhim ahamiyat kasb etadi. 1912–1913-yillarda Behbudiy «Samarqand» gazetasi, «Oyina» jurnaliga asos soladi. 1914-yilda Turkiya, Misrga borib, ushbu mamlakatlardan ma'rifiy kitoblar, o'quv qo'llanmalarini olib keladi.

So'ng yangi usuldagi maktab dasturi ustida ishlashga kirishadi. Biroq turli to'siqlarga uchrab, «jadidlar rahnamosi», «dahriy» deb e'lon qilinadi. Shunga qaramay, tatar mutafakkiri Ismoil Gaspiralining ma'rifatchilik borasidagi ta'limotini qo'llab-quvvatlab, yurtimizda ham



shunday ishlarni amalga oshirishga kirishadi. U ko'p o'tmay ma'rifatparvar sifatida o'z xalqi hurmatiga sazovor bo'ladi. Ulug' bobokalonimiz bir qator Sharq va G'arb tillarini bilgan yuksak madaniyat sohibi, umuminsoniy madaniyatning tolmamas targ'ibotchisi bo'lgan.

Behbudiy o'zbek va fors-tojik tillarida ikki yuzdan ortiq maqola va asarlar yaratgan. Jumladan, «Muntaxabi jug'rofiyai umumiy» («Qisqacha umumiy jug'rofiya»), «Kitob-ul-atfol» («Bolalar uchun kitob»), «Muxtasari tarixi islom» («Qisqacha islom tarixi»), «Amaliyoti islom», «Rusiyaning qisqacha geografiyasi» kabi darslik va kitoblar yozgan. Uning 1901-yildan boshlab «Turkiston viloyatining gazetasi», «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Tujjor», «Osiyo», «Hurriyat», «Turon», «Sadoi Turkiston», «Ulug' Turkiston», «Najot», «Mehnatkashlar tovushi», «Tirik so'z»,

«Tarjumon», «Sho'ro», «Vaqt», «Toza hayot», «Samarqand», «Oyina» kabi gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalari esa taraqqiyparvar kishilar, ayniqsa, yoshlarning diqqat-e'tiborini qozongan.

Mahmudxo'ja Behbudiy adib sifatida «Padarkush» yoki o'qimagan bolaning holi» dramasi yaratgan. 1913-yilda Samarqandda nashr etilgan bu dramada u xoh kambag'al, xoh badavlat oilaga mansub bo'lgan bola bo'lsin, ilmiy, madaniyatli bo'lishi lozimligini uqtirgan. Samarqand, Buxoro va Toshkent teatri sahnalari

xususan, Fitrat, Cho'lpon, Ayniy va boshqalar unga atab marsiyalar yozadi.

Sadriddin Ayniy allomaning fojiali vafoti munosabati bilan bunday yozgan: «Jafokash shoir Behbudiyning nomini musulmon Sharqi hurmat bilan tilga oladi, chunki u 20 yil mobaynida o'zining ongi va insoniy qadr-u qimmatini bilgan barcha mavjudotni erkin hayot, nur va ma'rifat uchun kurashga chorlab keldi».

Darhaqiqat, Behbudiy tarixni tarbiyaning buyuk vositasi deb bildi. Milliy shuurni tarix shuuridan, o'zlikni tanishni tarixni tanishdan izladi. Tarix bilan bog'lovchi qadim an'analarimizni mahkam ushladi. U millatning sha'nini har narsadan baland tutdi.


Jadidchilikning bosh g'oyalari-dan biri millatni uyg'otmoq, uni yangi turmushga tayyorlamoq edi. Bu degani jaholat va nodonlikka, xurofot va bid'atga qarshi kurashmoq edi. O'zining zakiylik, shijoatlilik, tirishqoqlik, topag'onlik, mehnatsevarlik, xushaxloqlik, ayniqsa, erk va bilimga chanqoqlik kabi asliy xususiyatlarini yo'qotib, o'zini-o'zi mahv etib bo'rayotgan millatni uyg'otish, unga o'zligini anglatish kerak edi. U o'zining butun ongli faoliyatini shunga qaratdi. Shu yo'lda qurbon bo'ldi. Uning nomi, millatning nurli istiqboli yo'lidagi beqiyos xizmatlari bugungi va kelajak avlodlar qalbida mangu yashajak.

Shu nuqtayi nazardan, so'ngi yillarda mamlakatimizda buyuk bobokalonimiz qoldirgan boy ma'naviy merosni o'rganish, xotirasini abadiylashtirish, hayoti va faoliyatini chuqur tadqiq qilish, ilmiy va badiiy asarlarini keng ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, poytaxtimizdagi Adiblari xiyobonida uning muazzam haykali o'rnatilgani, Samarqand shahrida uy-muzeyi tashkil qilingani buning yaqqol isbotidir.

Davlatimiz rahbarining «Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atqoli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida»gi qarori uning bebaho merosini yanada kengroq o'rganish va targ'ib etishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Bugun uning hayoti va ijodini chuqur tadqiq etish, asarlarining ilmiy nashrlarini tayyorlash, ularni o'qish va o'rgatish, targ'ib qilish borasidagi amaliy ishlar o'z samarasini beradi.

O'z muxbirimiz Adolat FAYZIYEVA tayyorladi.



Maqolani qoraqalpoq tilida ushbu QR-kod orqali o'qishingiz mumkin.



Молодежь — наше будущее

ПОКОЛЕНИЕ, КОТОРОЕ ИДЕТ ВПЕРЕД

Лейтенант Сарвиноз Рахимжанова — инспектор отделения по предупреждению преступлений в сфере информационных технологий отдела профилактики правонарушений УКД ОВД Мирзо-Улугбекского района столицы. Она относится к тому поколению молодых сотрудников, которое выбрало одну из самых сложных и ответственных сфер современности.

Опорой и вдохновением для нее всегда был отец. В юности он сам хотел служить в органах внутренних дел, но его мечта так и не осуществилась. Возможно, именно поэтому, когда дочь сказала, что хочет выбрать путь службы, он поддержал ее без колебаний.

В годы учебы в Академии МВД особенное влияние оказал преподаватель курса профилактики правонарушений подполковник Зиявуддин Шоумаров — человек, который умел мотивировать каждого курсанта добрым словом, объяснить сложное просто. Большую роль в профессиональном становлении сыграла и подполковник Шоира Кадырова, научившая Сарвиноз внимательности в работе с документами, ответственности, которые становятся фундаментом для любого сотрудника органов внутренних дел.

Во время учебы Сарвиноз удалось поехать в Китай — поездка, которая расширила ее представление о зарубежной системе подготовки специалистов.

Сфера информационных технологий стала тем направлением, где Сарвиноз чувствует себя по-настоящему нужной. В современном мире преступления все чаще происходят онлайн, и именно молодые сотрудники, владеющие цифровыми знаниями, становятся передовой линией защиты. Сарвиноз много работает с молодежью, проводит профилактические мероприятия, встречается со школьниками, студентами. Она убеждена, что сотруднику крайне важно владеть методами убеждения: не только из-за выступлений на собраниях, но и потому, что значительная часть профилактики проходит в социальных сетях.

Героиня активно делает контент для молодежи, где объясняет опасности киберпространства, делится советами, рассказывает о новых видах мошенничества. Чтобы быть услышанной, она старается говорить на языке молодых людей, использовать понятные им термины, приводить примеры, которые близки каждому пользователю интернета. Для нее важно не просто информировать, а действительно достучаться — предупредить, научить, защитить.

При этом Сарвиноз строго разделяет службу и дом. Дома она читает книги, разговаривает



с мамой — эти простые, но важные моменты помогают ей сохранить внутренний баланс. Она уверена, что хороший сотрудник должен уметь заботиться о своем эмоциональном состоянии, иначе невозможно отдавать себя службе полностью.

Юлия ЧАЙКИНА,
соб. корр.

■ Кашкадарьинская область

ПОВЫШАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ В ЦИФРОВОЙ СФЕРЕ

Во всех регионах республики осуществляется масштабная работа по повышению осведомленности населения об угрозах в виртуальном пространстве.



В Кашкадарьинской области проводятся мероприятия, направленные на информирование граждан о новых схемах кибермошенничества, об изменениях в законодательстве, регулирующем отношения в сфере кибербезопасности. Специалисты подчеркивают, что в условиях стремительного развития цифровых технологий, когда практически все население пользуется интернетом и мобильной связью, недостаточная киберграмотность ведет к росту случаев мошенничества

с использованием информационных технологий, хищению средств через вредоносные приложения, разглашению и краже персональных данных. Злоумышленники путем создания фейковых профилей, APK-и иных приложений, а также поддельных ссылок похищают денежные средства.

В рамках профилактических мероприятий проведена разъяснительная работа в 504 махаллах, 909 предприятиях и организациях, 461 общеобразовательной школе, 15 высших учеб-

ных заведениях. Приводились реальные примеры кибермошенничества, осуществляемого под видом «звонка банковского сотрудника» и «онлайн-оформления кредита».

В общественном транспорте, на базарах, в местах массового скопления людей также проводилась разъяснительная работа. Распространено 46 тысяч буклетов, в 310 общественных местах размещены баннеры. В

11,8 тысячах групп социальных сетей профилактическая информация доведена до 261,1 тысячи пользователей.

Управление по борьбе с преступлениями в сфере информационных технологий областного УВД напоминает, что создан Telegram-бот «Безопасный интернет-помощник». Если боту предоставить права администратора в группе, он автоматически будет удалять вредоносные APK-файлы, поступающие в группу.

Содик РАХИМОВ,
соб. корр.



KASB FIDOYISI

DARAXT BIR JOYDA KO'KARADI

Shu yil Yoshlar kuni munosabati bilan Nukus shahridagi Do'stlik kanali bo'yida o'tkazilayotgan katta bayram tadbiriga hududda tinchlik-osoyishtalikni asrash maqsadida jalb etilgan ichki ishlar organlari xodimlari qatorida katta serjant Arislanbek Sarbayev ham bor edi.

U odamlar gavjum bo'lgan maydonchani hamkasbi bilan aylanib yurar ekan, qarshisidan ikki-uch yoshdagi yig'layotgan bolakayni ko'targan kishi chiqdi. Fuqaroning aytishicha, bolakay adashib qolgan ekan. Zudlik bilan ushbu holat yuzasidan hududdagi barcha xodimlarga ratsiya orqali xabar berildi. Bolakay esa ko'chma tezkor shtab joylashgan avtobusga olib kelindi.

Bolasini yo'qotib qo'ygan ota-ona ham IIBga murojaat qilgan ekan. Osoyishtalik posbonlari tezda yetib kelishdi. Ma'lum bo'lishicha, yosh ota-ona sal e'tiborsizligi tufayli tumonat odam ichida bolakayni yo'qotib qo'yishgan ekan. Farzandining sog'-omon topilganidan xursand bo'lgan yosh ona yig'lagancha xodimlarga rahmat aytdi. Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV JXX JTSB PPX batalyoni ijtimoiy-siyosiy, ommaviy-madaniy tadbirlarni o'tkazishda xavfsizlikni ta'minlash otryadi guruh komandiri, katta serjant A.Sarbayev 11 yillik xizmat faoliyati davomida



bunday holatlarga ko'p bora duch keldi.

Lavhamiz qahramoni o'rta maxsus bilim yurtini tugallaganidan so'ng muddatli harbiy xizmatni o'tadi. 2011-yilda IIV Serjantlar tarkibini

tayyorlash oliy kurslarida tahsil oldi. «Daraxt bir joyda ko'karadi» deganlaridek, o'shandan buyon Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV JXX PPX batalyonida xizmat qilib kelyapti.

Xizmat paytida ko'plab odamlar bilan muloqotda bo'lamiz. Shu bois endigina faoliyatimni boshlagan paytlarim ustozlarim Qural Omarov, Nizam Yuldashev har qanday vaziyatda og'ir-bosiq, fuqarolar bilan xushmuomala bo'lish kerakligini uqtirishgan. Ularning maslahatlariga har doim amal qilaman, – deydi katta serjant Arislanbek Sarbayev.

Lavhamiz qahramoni ustozlari tavsiyalariga rioya etgani uchun ham shu darajaga yetdi. U bugungi kunda yosh xodimlarga to'plagan boy bilim va tajribasini o'rgatib kelyapti. O'zi ham o'qish-o'rganishdan to'xtagani yo'q. Hozirda Nukus Innovatsiya institutining sirtqi bo'limi 4-kursida ta'lim olmoqda.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.



Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intelktual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 53-modda.

RUHIYAT KO'ZGUSI

Zamonaviy xodimdan nafaqat bilim va malaka, balki mustahkam ruhiyat ham talab etiladi. Zero, ular har kuni turli vaziyatlarga – xavf, stress va ziddiyatli muloqotlarga duch kelishadi. Shu bois har qanday holatda ham sabr-toqat, bosiqlik va adolatli qaror qabul qilish qobiliyati muhim.

Ruhiy barqarorlik shaxsiy intizomdan boshlanadi. Tartibga rioya qilish, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yish, sport bilan shug'ullanish va yaxshi uxlash xodimning jismoniy va ruhiy sog'lomligi uchun asos hisoblanadi. Char-chagan odam to'g'ri qaror qabul qila olmaydi, shuning uchun ichki intizom har bir xodim hayotining muhim qismiga aylanishi lozim.

Muloqot madaniyati ham xizmatda alohida ahamiyatga ega. Xodimning har bir fuqaroga hurmat bilan munosabatda bo'lishi, og'ir vaziyatda ham samimiy so'z topa bilishi psixologik mahorat belgisidir. Oddiygina xushmuomalalik ham aksar muammolarni yengil hal etishi mumkin.

RUHIY BARQARORLIK SHAXSIY INTIZOMDAN BOSHLANADI

Ichki ishlar organlari xodimlari jamiyatda tartib-intizomni saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish kabi mas'uliyatli vazifalarni bajarishadi.



Stressni boshqarish – zamonaviy xodim uchun zarur ko'nikma. Kun davomida to'plangan zo'rliqishni yengish uchun dam olish, nafas mashqlari, musiqa yoki oila davrasidagi

sog'lom muloqot foydali hisoblanadi. Agar charchoq kuchaysa, psixolog maslahatini olishdan uyalmaslik kerak. Bu kuchsizlik emas, balki ongillik belgisidir.

Jamoadagi birdamlik ham xodimning ruhiy holatiga ijobiy ta'sir qiladi. Hamkasblarning qo'llab-quvvatlashi, tajriba almashish, bir-birini ruhlantirish xizmat samaradorligini oshiradi.

Shu bilan birga, xizmat va shaxsiy hayot o'rtasida muvozanatni saqlash ham juda muhim. Oila bilan muloqot, farzandlar bilan birga vaqt o'tkazish, yaqinlar bilan samimiy munosabatda bo'lish insonni ruhan quvvatlantiradi. Uydagi tinchlik – xizmatdagi ishonchning asosi.

Ichki ishlar organlari xodimi qalbida burch hissi bilan birga, mehr, adolat va insonparvarlik tuyg'ulari ham bo'lishi lozim. Chunki uning asosiy vazifasi inson hayoti va huquqini himoya qilish. Har bir xodim o'ziga-o'zi shunday savol berib yashamog'i kerak: «Men xalq ishonchini oqlayapmanmi?» Ana shunda u xizmatini faqat vazifa emas, Vatanga bo'lgan sadoqat deb biladi.

Murodjon BAHRIIDINOV,
kapitan.



SALOMATLIK POSBONLARI

FIDOYILIK VA INSONIYLIK TUYG'ULARI UYG'UN

Andijon viloyati IIB Tibbiyot bo'limi shifokor va hamshiralari 40 mingga yaqin ichki ishlar va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlari, ularning oila a'zolari va faxriylarga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatib kelmoqdalar. Salomatlik posbonlari faoliyatida mas'uliyat va mehr, kasbiy fidoyilik va insoniylik tuyg'ulari uyg'un.

Har kuni erta tongdan boshlab shifokorlar bemorlarni qabul qiladi, tibbiy ko'riklar o'tkazadi, zarur muolajalar belgilaydi. Yilning o'tgan to'qqiz oyi davomida 1026 nafar xodim va ularning oila a'zolariga gospital hamda sanatoriylarda sog'lig'ini tiklash uchun yo'llanmalar berildi. Bu, o'z navbatida, inson salomatligiga e'tibor, hurmat va g'amxo'rlikning amaliy ko'rinishidir.

– Xodimlar sog'lig'ini muhofaza qilish, ularning xizmat qobiliyatini saqlash va yuqori ruhiy holatini ta'minlash, – deydi tibbiyot bo'limi boshlig'i, mayor Ravshanbek Obidov. – Shu maqsadda har oyda shahar va tuman ichki ishlar bo'limlarida tibbiy ko'riklar tashkil etamiz. Biz har bir xodimga sog'lom turmush tarzi, to'g'ri ovqatlanish va stress holatlarini yengish bo'yicha maslahatlar beramiz. Chunki kasallikni

davolashdan ko'ra uning oldini olish muhimdir.

Murodjon Sotvoldiyev, Ra'noxon Nurmatova, Ilhomjon Umarov, Mahfuzaxon Sotvoldiyeva, Irodaxon Nazarova kabi shifokor

– Tibbiyot xodimlariga har qancha rahmat ayt-sak ozlik qiladi, – deydi iste'fodagi katta serjant Iqboliddin Hamroyev. – Sababi, ular salomatligimiz haqida bizdan ko'proq



Hamshiralar Muhayyo To'ychiyeva, Barchinoy Yuldasheva shifokor Temurbek G'ofurov bilan.

va hamshiralalar hamkasblariga ibrat bo'lmoqda. Ular inson salomatligini tiklashdagi ezgu xizmatlari, yuksak kasbiy mahorati va iliq munosabatlari bilan ko'pchilikning minnatdorligiga sabab bo'lmoqda.

qayg'urishadi. O'z vaqtida tibbiy ko'rikka chaqirib, kerakli maslahatlarni berishadi. Gospital va sanatoriylarga yo'llanmalar berishib, salomatligimizga befarq bo'lmaslikka chaqirishadi.



Shifokor Murodjon Sotvoldiyev.

Poliklinikada barcha zamonaviy sharoitlar yaratilgan. Tibbiyot xodimlari juda xushmuomala, muloqot qilish madaniyati yuqori. Men har yili bir marta sanatoriya yo'llanma olib, dam olaman, davolanib kelaman. Bu nafaqat sog'lig'imni tiklash, balki e'tibor va g'amxo'rlikni his qilish demakdir.

Darhaqiqat, bugun Tibbiyot bo'limi faoliyati na-

faqat sog'liqni ta'minlash, balki insonlarga bo'lgan mehrni, burchga sadoqatni, Vatanga muhabbatni ham namoyon etadi. Ular har bir xodimning sog'lig'i orqali jamiyat tinchligi va xavfsizligini qo'llab-quvvatlayotgan salomatligimiz posbonlaridir.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

AYOL VA JAMIYAT

«SABRGA SUYANIB YASHAYDI ULAR»

Paxtachi tumani IIB JXX Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmasi xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori kapitan Nilufar Mamadisayeva ichki ishlar organlarida qariyb 10 yil mobaynida xizmat qilib kelmoqda.

U oilalarda uchraydigan zo'ravonlikka qarshi kurashib, ayollar huquqlarini himoya qilishga, qizlarning kasb-hunar egallashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi borasida doimo jon kuydiradi. Oilalar tinchligini ta'minlash, xotin-qizlar murojaatlarini o'rganib chiqish va muammosini hal etish, ajrimlarning oldini olish uchun jonhalak. Biror oilada nizo chiqsa, darhol yetib boradi. Oila a'zolarini murosaga keltirib, yarashtiradi.

– Adashgan qizning qalbiga yo'l topib, hayot yo'lini tanlashda to'g'ri yo'l ko'rsatsam, bir yolg'iz onaga hujjat masalasida yordam bersam-u, uning ishi hal bo'lsa, bir ishsizga ish topib bersam-u, uning ro'zg'origa baraka kirsam yoki bir oilaning yarashib ketishiga sababchi bo'lsam o'sha kun mendan baxtli ayol yo'q, – deydi kapitan Nilufar Mamadisayeva. – Har kuni turfa taqdirlar bilan yuzma-yuz bo'laman. Ba'zilar haq-huquqini bilmaganidan hayotda qiynalgan,



ish izlab turli joylarda sarg'aygan, qaynona yoki turmush o'rtog'idan tazyiq ko'rgan, mushkuliga chora izlagan mushtipar ayollar. Shunda ham ular sabrga suyanib yashaydi. Oxiri sabr kosasi to'lgach, najot istab bizga murojaat qiladi.

Murojaatlar mahalla faollari, nuroniylar, tegishli tashkilotlar bilan birgalikda o'rganilib profilaktik, psixologik, tarbiyaviy suhbatlar o'tkazilmoqda. Natijalar esa ijobiy. Nizolar barham topib, oilalarda tinchlik shamoli esmoqda.

Lavhamiz qahramoni nazoratidagi har bir xonadonga kirib, oila a'zolari bilan suhbatlashib, vaziyatni nazorat qilib turadi. Oilaviy muhitga qarab ularni ro'yxatdan chiqaradi yoki huquqiy, ijtimoiy va boshqa yordam bo'yicha tegishli idoralarga murojaat qiladi.

– Har qanday oiladagi muhitni avvalo ayolning chehrasi gapiradi. Bolalarning o'yin-kulgusi jaranglagan uyda tinchlik va xotirjamlik bor. Unda kamolga yetayotgan o'g'il-qizlar yuzida baxtiyorlik aks etadi, – deydi qahramonimiz.

Nilufar kunlik xizmatdan so'ng oilasiga oshiqadi. U turmush o'rtog'i Ikromjon bilan 2 nafar o'g'ilni tarbiyalashmoqda. Farzandlarining bilimli, komil insonlar bo'lib ulg'ayishi yo'lida o'zi ham muntazam o'qib, izlanadi. Chunki ota-ona o'qimishli, ziyoli bo'lsa oilada xotirjamlik bo'ladi degan so'z juftlikning oltin qoidasiga aylangan.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.



Урок духовности и просвещения

ОСНОВАТЕЛЬ ДЖАДИДСКОГО ДВИЖЕНИЯ В ТУРКЕСТАНЕ

(К 150-летию со дня рождения Махмудходжи Бехбуди)

Махмудходжа Бехбуди – символ прогресса и просвещения, чья жизнь и деятельность вдохновляют на служение обществу. Его идеи, основанные на гармоничном сочетании традиционных ценностей и современных знаний, сохраняют актуальность в условиях стремительных изменений нынешнего времени.

Джадидизм – культурно-реформаторское движение, возникшее в сложный период геополитического надлома на рубеже XIX–XX веков. Среди ярчайших представителей движения – Махмудходжа Бехбуди. Его труды наполнены призывами к свободе мысли и ответственности за будущее Родины. Он ратовал за прогресс, развитие науки и культуры, за открытие школ нового типа, издание газет и журналов. Бехбуди выступал за создание профессионального национального театра, открытие библиотек, призывал к реформированию государственного управления и судебной системы. Великий просветитель стремился озарить сердца соотечественников светом знаний.

Для джадидов путеводной была мысль: «Нет и не может быть иного спасения, кроме знания». Бехбуди внес значительный вклад в становление узбекской школы



«Мунтахаби жуғрофияи умумий» («Краткая общая география»), «Китоб-ул-атфол» («Книга для детей»), «Рисолаи асбоби савод» («Книга грамотности»), «Рисолаи жуғрофияи умроний» («Введение в географию населения») и др. Они отличались ясным и доходчивым

тельностью. Его перу принадлежат проблемные статьи и фельетоны, направленные на распространение идей обновления. Он учредил газету «Самарканд» и журнал «Ойина» («Зеркало»).

Большое внимание Бехбуди уделял развитию театра, считая его храмом искусства, воспитания и просвещения, где можно найти ответы на многие духовно-нравственные вопросы. Примечательно, что национальная труппа «Турон» начала свою деятельность в 1914 году с постановки пьесы Бехбуди «Падаркуш» («Отцеубийца»).

В Узбекистане свято чтят память славного сына Родины. Его наследие придает сил и вдохновения. В Ташкенте на Аллее литераторов возведен памятник Бехбуди. В Самарканде действует дом-музей, где он жил и работал.



современного типа. Считая, что судьбу Родины решает прогрессивно мыслящее, образованное поколение, он сосредоточил усилия на расширении сети новометодных школ («усули жадид»). По его инициативе в 1903 году такие школы были открыты близ Самарканда в селах Халвойн и Ражабами, а в 1905 году – в селе Кафтархона. Здесь у учащихся формировали мировоззрение, свободное от фанатизма и консерватизма. Было существенно расширено преподавание светских дисциплин.

Бехбуди писал учебники и руководства для обучения языку, литературе, истории, математике, географии. Среди них

стилем изложения и регулярно переиздавались.

Просветитель осуществлял активную публицистическую дея-

В республике постановлением правительства учреждена премия имени Бехбуди, которая вручается драматургам за достойный

вклад в обогащение театрального репертуара. В Университете журналистики и массовых коммуникаций учреждена именная стипендия, которой отмечаются одаренные студенты.

За выдающийся вклад, внесенный просветительской деятельностью, формирование национальной системы образования и воспитания Указом Президента страны Махмудходжа Бехбуди посмертно был удостоен ордена «Буюк хизматлари учун».

Большая работа проводится в рамках реализации постановления Президента страны «О широко праздновании 150-летия со дня рождения основателя джадидского движения в Туркестане, выдающегося писателя, общественного деятеля, издателя и педагога Махмудходжи Бехбуди» от 27 декабря 2024 года. Это и проведение литературно-просветительских вечеров памяти, конкурса сочинений «Уроки Махмудходжи Бехбуди», постановка пьес, создание аудиовизуальных проектов, посвященных его деятельности. В Центральном выставочном зале Академии художеств, Галерее изобразительного искусства Узбекистана состоялись выставки произведений о жизни и творчестве Бехбуди. В столице прошла международная научно-практическая конференция «Новые подходы к изучению наследия джадидов и Бехбуди», в которой приняли участие исследователи, сотрудники музеев, эксперты из Узбекистана, Турции, США, Таджикистана. Аналогичные конференции с участием деятелей культуры, молодежи прошли в Бухарском государственном университете, Центре педагогического мастерства Самаркандской области, других образовательных и научных учреждениях республики. Расширяется включение наследия Бехбуди в школьные программы по литературе и истории, издаются научно-популярные книги о его жизни и деятельности.

Идеи Бехбуди и его соратников не утратили своей ценности. Они вдохновляющий ориентир, указывающий нам путь в будущее. Как подчеркнул Президент страны, наследие джадидов Туркестана «служит для нас прочным фундаментом строительства Нового Узбекистана и Третьего Ренессанса».

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.



Sergeli tumani IIOFMB JTSB PPX otryadining xodimlari, katta serjant Husan Turg'unov hamda safdor Muxan Mahamatov o'zlariga birlashtirilgan hududda xizmat olib borarkan, har bir shubhali holatga bee'tibor bo'lishmaydi. Chunki nazardan qochirilgan har qanday holat katta oqibatlariga olib kelishi mumkinligini yaxshi anglashadi.

Shu bois osoyishtalik posbonlari xizmat vaqtida doimo hushyorlik bilan harakat qilishadi. Tunning qaysi pallasi bo'lishidan qat'i nazar, xavfsizlik ularning diqqat markazida. Ko'pincha oddiygina kuzatuv yoki tezkor qaror tufayli jinoyat yoki huquqbuzarlikning oldi olinadi.

Katta serjant H. Turg'unov 2025-yilning o'tgan 9 oyi davomida 9500 nafardan ortiq fuqaroni planshet orqali tekshirib, shaxsiga aniqlik kiritgan. Shu bilan birga, 275 ta ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirgan. «Tig'» tadbiri doirasida 14 nafar fuqaroda o'tkir tig'li buyumlar mavjudligini aniqlagan. Shuningdek, 3 nafar qidiruvda bo'lgan shaxsni planshet orqali tekshirib, tuman IIOFMBga topshirgan.

Safdor M. Mahamatov ham 11 ming nafarga yaqin fuqaroni planshet yordamida tekshirgan. 263 ta ma'muriy huquqbuzarlik bo'yicha tegishli bayonnomalarni rasmiylashtirgan hamda «Tig'» tadbiri chog'ida 12 nafar fuqaroning sovuq qurol olib yurganini aniqlab, belgilangan tartibda chora ko'rgan. Shuningdek, planshet yordamida 2 nafar qidiruvda bo'lgan shaxsni aniqlab, ularni tegishli tartibda ichki ishlar organlariga olib borgan.

QO'SHSAHIYADA —

XOTIRJAM TONG — ZAHMATLAR NATIJASI

Shayxontohur tumani IIOFMB 3-sonli IIBga «O'rda», «Shayxontohur», «Janggoh», «Koh ota», «Labzak» va «Taxtapul» mahallalari kiradi.

— Ushbu hududda jami 42 mingga yaqin aholi istiqomat qiladi, — deydi IIB boshlig'i, podpolkovnik Tohir Qosimov. — Oltita mahalla-ning beshtasi «sariq», bittasi «yashil» toifada. «Sariq» toifaga kiruvchi «O'rda» mahallasida 2667 nafar fuqaro yashaydi. Hududda profilaktika katta inspektori, podpolkovnik Shuhrat Imomov xizmat olib boradi. Mahallada yettilik hamda aholi bilan yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Bu sa'y-harakatlar zahirida hududni «sariq» toifadan «yashil»ga o'tkazish, ya'ni huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va jinoyatchilik darajasini kamaytirish yotibdi.

Hududda yirik savdo majmualari ham borki, bu xodimlardan alohida hushyorlik va ziyraklikni talab etadi. «Taxtapul» mahallasida hammaga tanish bo'lgan «Malika» («Premium Prime servis» MCHJ) savdo kompleksi joylashgan. Bu bozorga har kuni minglab fuqarolar kelib-ketadi, shu bois jamoat tartibi va xavfsizlikni ta'minlash xizmatning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bozor hududi videokuzatuv tizimi bilan to'liq jihozlangan bo'lib, do'konlar qo'riqlash pultiga ulangan. Bu tizim



orqali shubhali holatlar yoki huquqbuzarliklar aniqlanib, tezkor choralar ko'riladi.

Navbatchilik qismi xodimlari uchun har bir qo'ng'iroq oddiy xabar emas, balki kimningdir yordamga muhtojligi belgisidir. Ular kelib tushayotgan ma'lumotlarni o'z vaqtida qayd etib, jinoyat sodir etilgan hollarda tergov-tezkor guruhini voqea joyiga chiqarishni ta'minlaydi.

3-sonli IIBda xizmat qilayotgan podpolkovnik Sharofiddin Toshpo'latov, mayorlar Aziz Mahkamov va Doniyor Samadov, katta leytenant Islom Nurullayev hamda safdor Bourjon Karimov kabi fidoyi osoyishtalik posbonlarining har biri o'z yo'nalishida mas'uliyat bilan ish olib borib, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda namuna ko'rsatib kelishmoqda.

Bugun tumanda tinchlik hukm surayotgan bo'lsa, bolalar sho'x-shodon o'ynayotgan bo'lsa, oilalar xotirjam tong ottirayotgan bo'lsa — bunda albatta fidoyi xodimlar zahmati yotibdi. Zero, tinchlik eng katta boylik, uni asrash esa har bir xodimning muqaddas burchidir.

«YANGI TURMUSH»DA YANGI NAFAS



Sohada xizmat boshlaganiga ko'p bo'lmasada, katta marralarni ko'zlagan yosh xodimlar talaygina. Ana shunday umidli yoshlardan biri — Yangi hayot tumani IIOFMB «Yangi turmush» mahallasi profilaktika inspektori, leytenant Mudassir Muhammadiyev. U 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Huquqni muhofaza qilish akademiyasini muvaffaqiyatli tamomlab, xalqqa xizmat qilish, yurtida tinchlik va barqarorlikni ta'minlashni maqsad qildi.

Yosh inspektor o'z faoliyatini boshlaganida unga mahalla fuqarolar yig'ini raisi Nurmat Qurbonov, profilaktika katta inspektori, katta leytenant Jasur Rahmonovlar yo'l-yo'riq ko'rsatdi, bilmaganlarini o'rgatdi. Shuningdek, qolgan yettilik a'zolari bilan ham yaqin hamkorlik o'rnatib, har bir xonadonga borib, profilaktik suhbatlar o'tkazishda, muammolarni tinglab, ularni hal etishda bamaslahat ish olib bormoqda.

Shu bilan birga, jinoyat sodir etishga moyil shaxslar, janjalkash fuqarolar bilan doimiy ravishda individual profilaktik suhbatlar tashkil etilayotgani natijasida mahallada huquqbuzarlik va jinoyatchilik holatlari sezilarli darajada kamaydi. Quvonarlisi mahalla joriy yil boshidan buyon «yashil» toifada. Shu vaqtga qadar birorta ham jinoyat sodir etilmadi.

— Mahallamizda 40 ta ko'p qavatli uy va 100 ta hovli xonadon mavjud bo'lib, jami 12400 nafar fuqaro istiqomat qiladi, — deydi leytenant M. Muhammadiyev. — Har bir inson o'zini xavfsiz, oilasi va yaqinlari tinchligidan mamnun holda yashasa, bu — biz bajarayotgan xizmatning eng katta yutug'i, deb bilaman.

Bugungi kunda mam-lakatimizda ichki ishlar organlari xodimlarining malakasini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar samarasi sifatida ana shunday fidoyi yosh kadrlar yetishib chiqmoqda. Leytenant M. Muhammadiyev kabi sohaga sadoqat bilan xizmat qilayotgan yoshlar yurtimiz osoyishtaligini ta'minlashda o'z hissasini qo'shayotgani fikrimizning isboti.



TOSHKENT SHAHRI

ASOSIY MAQSAD –
JARIMA QO'LLASH EMAS

Poytaxtimizning serqatnov ko'chalarida har kuni bir necha yuz minglab transport vositalari hamda piyodalar harakatlanadi. Mana shunday murakkab vaziyatda harakat xavfsizligini ta'minlash, fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yo'l-transport hodisalaridan asrash – birinchi navbatda yo'l-patrul xizmati xodimlarining zimmasidagi vazifa.

Toshkent shahar IIBB YHXB YPX brigadasi 3-batalyon 3-safarbar guruhi inspektori, kichik serjant Ilyos Abdullayev hamkasb-

lari bilan asosan, poytaxtimizning markaziy hamda gavjum – Alisher Navoiy ko'chasi bo'ylab xizmat olib boradi.

– Biz uchun eng muhimi – haydovchi, yo'lovchi va piyodalarning xavfsizligini ta'minlash, – deydi kichik serjant Ilyos Abdullayev. – Qoida-buzarlik natijasida rasmiylashtirilgan har bir jarima yoki qat'iy ogohlantirish sodir etilishi mumkin bo'lgan ayanchli hodisaning oldini olishi bilan ahamiyatli. Lekin YPX inspektorining asosiy maqsadi – jarima qo'llash emas, balki fuqarolarning qoidalarga qat'iy rioya etishi, ularda harakat xavfsizligi madaniyatini yuksaltirish uchun muntazam ravishda tushuntirish ishlarini olib borish.

Yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlash faqatgina YPX inspektorlarining ishi emas. Bunda barcha fuqarolar birdek mas'ul bo'lsagina ko'zlangan maqsadga erishiladi, yo'l transport hodisalari natijasida insonlar o'limi kamayadi. Har birimiz qoidalarga rioya etishni burchimiz deb bilsak, yo'llarimiz xavfsiz, hayotimiz osoyishta bo'ladi.

SALBIY ILLATLARDAN ASRASH YO'LIDA

Poytaxtimizning **Mirobod tumani IIOFMB HPB** voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologi, katta leytenant Akmal Uzoqov tomonidan ta'lim muassasalari, mahalla faollari va sohaviy xizmat vakillari bilan hamkorlikda turli yo'nalishlarda targ'ibot va ma'rifiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, ota-ona nazoratisiz qolgan hamda muntazam dars qoldiruvchi o'quvchilar bilan manzilli ishlar olib borilayotgani fikrimiz tasdig'idir. Jumladan, tumanning «Salar» mahallasi faollari va hududdagi 110-o'rta ta'lim maktabi ma'muriyati bilan hamkorlikda darslarga kelmaydigan o'quvchilar bo'yicha muhokama tashkil etildi. Unda 11-sinf o'quvchisi A.Q. darslarga muntazam qatnashmagani sababli uning yashash manziliga borilib, oilaviy muhiti o'rganildi. Bolaning ta'lim jarayoniga qaytishi va yaxshi xulq-atvorda bo'lishi yuzasidan suhbatlashilib, tavsiyalar berildi.

Katta leytenant A. Uzoqov hamkasblari bilan hamkorlikda tungi reydlarda ham faol ishtirok etmoqda. Shu kabi tadbirlardan birida Sharof Rashidov nomidagi mahalla hududida be-maqсад yurgan, Qashqadaryo viloyatida tug'ilgan voyaga yetmagan Sh.L. aniqlandi. U bilan profilaktik suhbat o'tkazilib, Toshkent shahar IIBB HPB huzuridagi Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirildi.

O'quvchi-yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport,



axborot-texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishni oshirish, o'quvchi-qizlarni ijtimoiy faol hayotga jalb etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus yuzasidan ham tadbirlar tashkil etilmoqda. Shu maqsadda tashkil etilgan tadbirda voyaga yetmagan nogironligi bo'lgan bolalar uchun interaktiv o'yinlar, konsert dasturlari va qiziqarli chiqishlar namoyish etildi. Faol qatnashgan ishtirokchilar esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Amalga oshirilayotgan bunday chora-tadbirlar farzand-

larimizning ma'naviy kamoloti, huquqiy ongi va ma'rifatli bo'lishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Lavhamiz qahramoni hamda hamkor tashkilotlar bilan hamjihatlikda olib borilayotgan sa'y-harakatlar zahirida voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish hamda ularni turli salbiy illatlardan asrash kabi oliy maqsadlar mujassam.

Qo'shsahifa materiallarini o'z muxbirimiz Sarvar SOBIROV tayyorladi.
Abu KENJAYEV va Ikrom HASANOV olgan suratlar.

ZAMONAVIY
YONDASHUV
SAMARASI

Bugungi axborot asrida jinoyatchilikning yangi ko'rinishi – kiberfiribgarlik jamiyat xavfsizligi uchun jiddiy tahdid bo'lib qolmoqda. Internet orqali amalga oshirilayotgan turli nayrang va aldov usullariga qarshi kurashda fuqarolar ongida hushyorlik va huquqiy bilimni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada **Yunusobod tumani IIOFMB HPB** Axborot-texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning oldini olish bo'limi tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

– Joriy yilning o'tgan 10 oyi davomida zamon talablariga mos ravishda, axborot targ'ibot ishlari internet maydonida ham keng qamrovda tashkil etildi, – deydi tuman IIOFMB HPB ATSJOOB inspektori, katta leytenant B.Ibragimov. – Faqatgina an'anaviy targ'ibot uchrashuvlarini tashkil etish bilan cheklanib qolmasdan OAV, shuningdek, blogerlar bilan hamkorlikda Instagram, Telegram va YouTube tarmoqlariga ham targ'ibot videoroliklari joylashtirib borilmoqda.

Shuningdek, tumanning aholi gavjum nuqtalarida uchrashuv va davra suhbatlari tashkil etilib, bozorlar, hayvonot bog'i hamda ta'lim muassasalarida axborot bannerlari o'rnatildi. Mana shu keng qamrovli tadbirlar natijasida, kiberfiribgarlik holatlari bo'yicha fuqarolarning xabardorlik darajasi oshdi, ehtiyot choralari haqidagi ma'lumotlar keng tarqatildi.

– Firibgarlik va kiberjinoyatlarga qarshi kurashda boshqa sohaviy xizmatda faoliyat yuritayotgan hamkasblarimiz bilan hamkorlikda ish olib borilmoqda, – deydi tuman IIOFMB HPB ATSJOOB inspektori, katta leytenant O. Mo'minov. – Bu hamjihatlik orqali fuqarolar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot kuchaytirildi, profilaktika ishlarining samaradorligi yanada ortdi. Bu turdagi jinoyatlar aniqlanish darajasi ham oshib bormoqda.

Tuman miqyosida amalga oshirilayotgan ushbu yo'nalishdagi ishlar nafaqat jinoyatchilikning oldini olishga, balki fuqarolarning huquqiy ongi va kibermadaniyatni yuksaltirish hamda ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi immunitetni yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda.



«Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi» doirasida ta'sirchan targ'ibot ishlarini olib borish maqsadida Farg'ona viloyatida 18 ta hamkor tashkilot xodimlaridan iborat ishchi guruh faoliyati yo'lga qo'yildi. Ishchi guruh viloyat IIB qoshidagi kiberxavfsizlik laboratoriyasida muntazam faoliyat olib bormoqda. Oylarning o'tgan davrida ishchi guruh tomonidan korxona va tashkilotlar, mahallalar va aholi gavjum joylarda 1000 dan ziyod targ'ibot tadbirlari o'tkazildi. Fuqarolarni ogohlikka chorlovchi 200 ming nusxa eslatma buklet va flayerlar tarqatildi. Bozorlar, savdo majmualari, korxona-tashkilotlarning kirish joylariga mavzuga oid banner va plakatlar ilindi. Targ'ibot ishlari ta'sirchanligini yanada oshirish maqsadida ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan samarali foydalanilyapti.



– Hozir uchrayotgan kiberhujumlarning aksariyati aynan APK fayllari bilan bog'liq. Shunday fayllarni bilmasdan ochib qo'yib, halol mehnat bilan yiqqan pulidan ayrilib qolayotgan fuqarolar bizga juda ko'p murojaat qilishyapti, – deydi viloyat IIB Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, kapitan Oblobergan Yoqubov. – Kiberjinoyatchilar odamlarni qiziqitirish uchun fayl ostiga turli jimjimador so'zlarni yozib qo'yishadi. Masalan, «Suratdagi sizmisiz?», «Suddan chaqiruv qog'ozi», «Bu videoda siz qatnashganmisiz?», «Videoda sen ekaningni ko'rib ayt», «MIB ma'lumotlari» va shunga o'xshash tag-so'zlar yozib, faylni ochishga beixtiyor majbur qilishadi. Bundan tashqari, «Tez pul ishleng», «Siz yutdingiz», «Davlatdan yordam» degan soxta havolalarga ham mutlaqo ishonmaslik zarur. Odamlar esa gohida bilib, gohida qiziqib, gohida bilmasdan bunday fayllarni ochadi. Oqibatda kiberhujumga uchraydi. Jinoyatchilar uning nomiga ochilgan plastik kartalardagi mablag'ni zumda yechib olishadi. Shu bois qayerda fuqarolar bilan uchrashuvlar o'tkazsak, «APK fayllarni ochmanglar, pulingizdan ayrilasiz», deb takror-takror eslatishdan char-

APK FAYLLARNI ASLO OCHMANG!

chaganimiz yo'q. Shu mazmunda ko'p minglab nusxada flayer va bukletlar chiqarib, aholiga tarqatdik. Ammo biz qanchalar harakat qilmaylik, qachonki fuqarolar hushyor, ogoh bo'lsagina, bunday jinoyatlarning oldini olish mumkin.

Kiberjinoyatlar nafaqat pul mablag'lariga, hatto insonning sha'ni, qadr-qimmatiga ham qaratilib, oilalarning buzilishiga, ajrimlarning ko'payishiga sabab bo'lyapti.

Oltiariq tumanida bo'lib o'tgan voqealar kiberjinoyatlarning turi va shakllari ko'pligiga yana bir dalildir. Mazkur tumanda ijtimoiy tarmoq orqali «Pulingizni ko'paytirib beramiz!» degan yolg'on takliflarga ishonganlar soni bir necha yuzlab kishiga borib yetgan ekan. Bu soxta chorlovni o'ylab topganlar turli quruq va'dalarni berib, pul mablag'ini tikkanlarga dastlab foyda sifatida bonuslar ajratib turgan. Bonus olgan kishilar esa battar qiziqib, o'z yaqinlarini ham bu onlayn o'yinga taklif qilishgan. Shu alfozda o'yin ommalashib ketgan. Ayrim sodda kishilar to'y qilaman, mashina olaman deb yil bo'yi yig'ib-tergan pullarini ikki hissaga ko'paytirib olish ilinjida shu notanish o'yin tashkilotchilariga qo'sh-qo'llab topshirib yuborgan. Aslida bu moliyaviy piramidaning ortida ustomon kiberjinoyatchilar turgan edi. Pul tikkanlar soni bir necha yuzlab kishiga, mablag' milliardlab so'mga borib yetganida, ular ertakdagi sehrlar devlardek birdan g'oyib bo'lishadi. Na telefon raqamlari, na telegramdagi profillaridan asar ham qolmaydi. Keyin aldanganini bilgan fuqarolar yordam so'rab, huquq-tartibot organlariga murojaat qilishdi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

MAQSADI ISHQMIDI YOKI «ISH»?

Hamyurtlarimiz ichki ishlar organlari xodimlari timsolida o'zlarining haq-huquqlari va xavfsizligi himoyachilarini ko'rishadi. Taassufki, ayrimlar bundan foydalanib, o'zini ushbu soha vakillari sifatida tanishtirib, qonunga zid xatti-harakatlar sodir etib, mo'may daromad orttirish payida bo'lishadi.

Surxondaryolik 25 yoshli yigit Navoiy viloyatilik ayol bilan ijtimoiy tarmoqda tanishib, o'zaro muloqot o'rnatadi. Qisqa vaqt ichida uning ishonchini qozonib, fotosuratlarini va videotasvirlarini qo'lga kiritadi. So'ng esa o'zining ichki ishlar organi xodimi ekanligini aytib, ayolning suratlarini ijtimoiy tarmoqlarda tarqatish bilan qo'rqitib, pul talab qiladi.

Ayol sharmanda bo'lishdan cho'chib, yigit ko'rsatgan plastik to'lov kartasiga dastavval 600 ming so'm, keyin yana 250 ming so'm o'tkazadi. Jonini koyitmay daromad topishning yo'lini bilib olgan yigit tag'in pul so'rashda davom etadi. Shundan so'ng ayol ichki ishlar organiga murojaat etishga majbur bo'ladi.

Ushbu murojaat asosida IIV SHXBBning Navoiy viloyati bo'yicha bo'limi hamda viloyat IIB TQX JQB xodimlari tomonidan o'tkazilgan tez-

kor tadbir davomida tovlamachilikda gumon qilingan shaxs qo'lga olinadi. Unga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilib, ayni damda dastlabki tergov harakatlari olib borilmoqda.

Hurmatli hamyurtlar! Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanganda, xavfsizlik qoidalariga rioya qiling, o'zingiz tanimagan, bilmagan, ishonmagan odamlarga shaxsiy ma'lumotlaringizni, fotosuratlaringizni va videotasvirlaringizni taqdim etmang. O'zini ichki ishlar organi yoxud boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idora xodimi deb tanishtirgan firibgarlarga va tovlamachilarga aldanib qolmang.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.


Navoiy viloyati.



В академических лицеях МВД

ПЛОДЫ ТРУДА – В УСПЕХАХ УЧЕНИКОВ

Выступая на 80-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН, Президент страны предложил провести в Узбекистане Всемирный саммит профессионального образования, чтобы создать международную платформу для обмена опытом и знаниями между педагогами. Это свидетельствует о том, какое большое внимание уделяется развитию системы образования и человеческого капитала в нашей стране.



В последние годы значительно расширился охват дошкольного и высшего образования, повысился престиж профессии учителя и преподавателя. Проведение такого саммита позволит внедрить в национальную систему лучший мировой

опыт, укрепить международное сотрудничество и продемонстрировать миру реформы, осуществляемые в сфере образования. Кроме того, это станет важным шагом в популяризации богатой научно-образовательной истории нашей страны.

В Каракалпакском академическом лицее МВД Республики Узбекистан благодаря углубленному изучению иностранных языков в этом учебном году 7 учащихся первого курса и 27 второго получили специальные сертификаты, а еще 39 учащихся

второго курса планируют их получить.

– Стремлюсь развивать у лицеистов навыки свободного общения, чтения, письма и аудирования на английском языке, формировать современное мировоззрение и способность к

самостоятельному мышлению. Во внеурочное время мы организуем дополнительные занятия, которые помогают учащимся готовиться к национальным и международным экзаменам для получения сертификатов, – делится учитель английского языка Улдаулет Шныкулова. – В своих научно-исследовательских работах по педагогике уделяю особое внимание внедрению современных образовательных технологий, повышению качества обучения и совершенствованию взаимоотношений между педагогом и учеником. В этом году мы совместно с преподавателями английского языка лицея А. Утениязовой, А. Уббиниязовой, Х. Аллановой и З. Ибрагимовой разработали методическое пособие для первого курса под названием «Practical English for Military Students».

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.

Республика
Каракалпакстан.

■ Наманганская область

ОТКРЫТЫЙ ДИАЛОГ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ

Информационные технологии стремительно проникают в нашу жизнь. С учетом этого, формирование у молодежи цифровой грамотности и навыков безопасного использования интернета обретает особую актуальность.

Недавно в академическом лицее состоялся учебный семинар на тему «Формирование

цифрового иммунитета». Учащимся рассказали о признаках интернет-мошенничества, защи-



те личных данных, правильном и безопасном использовании социальных сетей.

Мероприятие проходило в форме открытого диалога, в ходе которого специалисты приводили реальные примеры, связанные с киберпреступлениями, и подчеркнули необходимость строгого соблюдения

каждым пользователем правил кибербезопасности.

Семинар сыграл важную роль в повышении уровня цифровой культуры молодежи, формировании осознанного отношения к угрозам в интернет-пространстве.

Соб. корр.


ЖАҲОННИ ТИТРАТГАН «ТОШКЕНТ ЙЎЛБАРСИ»

Ўтган асрнинг 60–70 йилларида мамлакатимиз довруғини дунёга таратган бир нечта буюк спортчилар етишиб чиққан. Хусусан, Руфат Рисқиев, Абдулла Қодироҳунов, Собир Рўзиев ва бошқа спорт усталари жаҳон шоҳсупасининг энг юқори поғоналарига кўтарилишга муваффақ бўлишди.

Руфат Рисқиев бокс бўйича жаҳон чемпиониغا айланган биринчи ўзбек спортчисидир. Айнан у туфайли Ўзбекистонда буюк чемпионлар авлоди етишиб чиқди. Болалигидан Руфат Рисқиев каби боксчи бўлишни истаган икки карра Олимпия ўйинлари ва бир неча бор жаҳон чемпиони Баҳодир Жалолов ўз таассуротлари билан ўртоқлашиб шундай деган: «Албатта, барча ғалабаларимизда устоз ва мураббийларимизнинг хизматлари бебаҳо. Уларнинг маслаҳатисиз биз бундай марраларга эриша олмаймиз. Уч ёшлигимда онам Руфат ака Сурхондарёга келганларида мени қўлларига олиб, катта бўлганимда боксчи бўлишимни ва Ватанимиз шарафини муносиб ҳимоя қилишимни тилаганини айтиб берганлар. Бу воқеа менинг ҳаётимда муҳим роль ўйнади».

Руфат Рисқиев 1949 йил 2 октябрда Тошкент вилоятининг Оққўрғон туманида туғилган. Унинг устози иқтидорли мураббий Сидней Жаксон эди. Жанг пойдеворини ушбу мураб-


бий қўйган бўлса-да, Рисқиев 1966 йилгача машғулотларни Алексей Баранов билан давом эттирган. «Тошкент йўлбарси»-



нинг тақдирида ҳал қилувчи роль ўйнаган учинчи мураббий Борис Гранаткин бўлди. Айнан унинг раҳбарлигида Рисқиев том маънода бокс Олимпига парвоз қилди. Мураббий умидли боксчига бутун билимини, кучини, вақтини сарфлади. 1970 йилда «йўлбарс» «катта жангчилар» тоифасига ўтди

ва ўша даврдаги барча бокс юлдузлари билан ҳар қандай жангга тайёр эди. Руфат ўзининг бетакрор техникаси – кучли зарбаси ва чиройли услуби билан ажралиб турарди. У рақибига устунлик бермасдан, аниқ, режали жанг олиб боришни биларди. Руфат ҳар қандай вазиятда кутилмаган ҳужумни амалга ошириб, уни кучли зарба билан якунларди. Унинг номи Муҳаммад Али, Борис Лагутин, Валерий Попенченко, Жорж Форман ва бошқа афсонавий боксчилар билан бир қаторга кирди.

Руфат Рисқиев ҳаётлигида бокс афсонасига айланди. У собиқ Иттифоқда хизмат кўрсатган спорт устаси, 1974 йилда Гаванада ўтказилган бокс бўйича илк жаҳон чемпионатида барча рақибларини енгиб, олтин медални қўлга кiritган жаҳон чемпиони, Монреалдаги Олимпия ўйинларининг кумуш медали совриндори, тўрт карра собиқ Иттифоқ чемпиони. Куба, АҚШ, Испания, Австрия, Югославияда ўтказилган халқаро турнирлар ғолиби. Иккинчи ўрта вазн тоифасида 1971 йилдан 1976 йилгача дунё бўйлаб биринчи қўлқоп соҳиби эди.



Айнан унинг ҳузурига узоқ Америкадан Тошкентга бокс оламининг энг машҳур намояндаси, «XX аср спортчиси», «Халқаро бокс шон-шўхрати зали аъзоси» Муҳаммад Али махсус ташриф буюрган.

Боксдаги фаолияти орқали бутун дунёда «Тошкент йўлбарси» номи билан донг таратган афсонавий боксчи Руфат Рисқиев 189 та жанг ўтказиб, шундан 174 тасини ғалаба билан якунлаган.

Руфат Рисқиев ўзбек боксига тамал тошини қўйган инсонлардан бири ҳисобланади. Ўзбекистонлик боксчиларнинг ҳозирги муваффақиятларида ҳам ушбу спортчининг хизмати беқиёс. У «Ҳурмат белгиси», «Буюк хизматлари учун», «Эл-юрт ҳурмати» орденлари соҳиби. Марказий Осиёдаги илк халқаро тоифадаги профессионал бокс ҳаками. Унинг ўзбек бокс мактаби шаклланишидаги хизматларини ҳисобга олган ҳолда, 2019 йилдан эътиборан бокс бўйича Ўзбекистон чемпионатининг энг яхши иштирокчисига Руфат Рисқиев совринини топшириш йўлга қўйилди. 2020 йил декабрь ойида Президент Шавкат Мирзиёев қарорига мувофиқ, «Дўстлик» ордени билан тақдирланган.

Руфат Рисқиевнинг ўзбек бокси ривожига қўшган ҳиссаси, кўплаб маҳоратли шогирдларни етиштиргани, афсонавий боксчимизнинг спортда кўрсатган юксак матонат ва жасорат каби хислатлари бугунги ёшларга ўрнак бўлиб келмоқда.

Файратулла ШУКУРОВ,
ўз мухбиримиз.



ТОЗА ҚўЛЛАР – СОҒЛИҚ ГАРОВИ

Статистик маълумотларга кўра, юқумли касалликларнинг 35–40 фоизига гигиена қоидаларига риоя қилмаслик сабаб бўлади. Юқумли ва паразитар касалликларнинг аксарияти умумий ва шахсий гигиена қоидаларига амал қилмаслик оқибатида келиб чиқиши маълум. Айниқса, қўл орқали юқувчи касалликлар, жумладан, ўткир ичак инфекциялари 46 фоизга, сувчечак 2,1 фоизга, нафас олиш аъзолари сили 1,5 фоизга ошган.

Юқумли ва паразитар касалликлар юқиши олдини олишнинг энг самарали йўли – тоза қўллар қоидадир. Бу қоида асосан қуйидагиларни ўз ичига олади:

- кўчадан уйга кирганда, овқатланишдан олдин, ҳожатхонага киришдан олдин ва кейин, шунингдек, вақти-вақти билан қўлларни совунлаб ювиш;
- кўча-қўйда юрган вақтда дуч келган нарс-буюмни қўл билан ушламаслик;
- умумий ва жамоат транспорти хизматидан фойдалангандан сўнг қўлларни зарарсизлантирувчи воситалар билан зарарсизлантириш;
- мева-сабзавотлар ва полиз маҳсулотларини истеъмолдан олдин яхшилаб ювиш;



Булардан ташқари, ҳар бир ижтимоий соҳа муассасаларида тозалikka риоя қилиниши, одамлар учун қулай санитария-гигиена шароитларининг яратилиши, яъни, қўл ювиш жойлари совун ва бир марталик қоғоз салфеткалар билан таъминланиши ҳам мақсадга мувофиқ. Қолаверса, шахсий гигиена ҳақида тарғибот тадбирларини олиб бориш, аҳолининг бу борадаги билимини ошириш талаб қилинади.

Хуллас, ҳар биримиз санитария-гигиена қоидаларига амал қилишимиз, яшаш хонадонларимизни, иш жойларимизни тоза-озода тутишимиз, ёш авлодни тарбиялаш жараёнида гигиена қоидаларига амал қилинишига асосий эътибор қаратишимиз лозим. Зеро, тоза қўллар саломатлик гаровидир.

Шоакбар ТЕМИРОВ,
Қашқадарё вилояти ИИБ
Тиббиёт бўлими СЭНМ
санитария шифокори.



– ҳайвонлар ва паррандаларни парваришда иштирок этгандан сўнг қўлларни, албатта, совунлаб ювиш.

Здоровье

Наш организм ежедневно подвергается воздействию токсинов и вредных веществ, накапливая их. Это негативно сказывается на самочувствии, снижает иммунитет и ухудшает общее состояние здоровья.



МЯГКОЕ ОЧИЩЕНИЕ ОРГАНИЗМА

«Чистка организма» – это комплекс мер, направленных на выведение токсинов и шлаков, который включает в себя сбалансированное питание с обилием клетчатки, достаточный питьевой режим (особенно чистой воды), регулярную физическую активность и полноценный сон. Важно понимать, что здоровый организм сам способен очищаться через печень, почки, кожу и другие органы. Перед

началом любых радикальных «чисток» необходима консультация врача, так как неправильные действия могут нанести вред.

Полезно разгрузиться после праздников или переедания, при чувстве тяжести и усталости, при отеках или проблемах с кожей.

В таких случаях помогает мягкое очищение: пить больше чистой воды, есть овощи, каши, фрукты, уменьшить жирное, сладкое и соленое, добавить легкие супы и травяные чаи (шиповник, ромашка, мята).

Полезные привычки

1. Вода – 6–8 стаканов в день.
2. Сон – не меньше 7 часов.
3. Движение – хотя бы 30 минут в день.

Инсон оғиз бўшлиғида жуда кўплаб микроорганизмлар яшайди. Улар овқатни ҳазм қилишда кўмаклашади, оғиз бўшлиғини зарарли бактериялардан ҳимоялайди. Аммо организм кучсизланса, ушбу микроорганизмлар кариес, милклар касалланиши ёки бошқа шу каби хасталикларни келтириб чиқаради.



Тишни доимий равишда ювиш ҳамда тиш оралиқларини махсус ип ёрдамида тозалаш микроорганизмлар миқдорини меъёрда ушлашга хизмат қилади. Аксинча, нотўғри овқатланиш, тозалikka риоя қилмаслик тишларда юмшоқ карашларни ҳосил қилади. Оқибатда милк касалланади, қонайди ва оғиздан бадбўй ҳид кела бошлайди. Нотўғри қўйилган пломба, тиш ковагини тўлдиришда ишлатиладиган модда, тиш протезлари туфайли ҳам милк қонайди. Шунинг учун ўз вақтида малакали стоматолог кўригидан ўтиш, даволаниш ҳамда овқатланиш тартибига қатъий амал қилиш зарур.

Оғиз бўшлиғидан келадиган ноҳуш ҳидга тиш-милк касалликларидан ташқари, оғизда таом қолдиқларининг чириши, кизилўнғач, ошқозон, ичак, қандли диабет, ўпка хасталиклари сабаб бўлади.

Қуйида оғиз бўшлиғи муҳитига ижобий таъсир кўрсатувчи ҳамда ёқимсиз ҳидни бартараф қилишга доир тавсияларимизни баён этамиз. Жумладан, майдаланган исирикнинг устки қисмидан бир чой қошиқ олиниб, идишга солинади ва қайноқ сув қуйилади. Сўнг 2 соат димланиб, қунига 3–4 марта оғиз чайилади.

Тузли сув ҳам оғиз бўшлиғи тозалигини таъминлашда қўл келади. Айниқса, йиринглаш кузатилганда, бу яхши самара беради. Бундан ташқари, мойчечак дамламаси ҳам фойдали. Худди шундай, 1 чой қошиқ долчин кукунини 200 миллилитр қайноқ сувда эритиб, оғизни қунига 3 маҳал чайиш зарур. Қолаверса, сирли идишга

2 қошиқ дуб пўстлоғи солиб, устидан 200 миллилитр қайноқ сув қуйиш ва 30 дақиқа қайнатиш орқали олинган дамлама билан оғиз ва томоқни қунига 5–6 марта чайиш ижобий натижа беради.

Лимонўтнинг ҳам нафи яхши. Бундай дамламани тайёрлаш учун идишга 8 чой қошиқ майдаланган хомашё солинади, устидан 400 миллилитр қайноқ сув қуйилиб, қопқоғи қаттиқ беркитилади. Кейин сузилиб, қунига 3–4 маҳал оғиз чайилади. 2 чой қошиқ петрушкани 200 миллилитр қайноқ сувга солиб, ярим соат дамлаш, сўнг сузиб олиб, оғиз соҳасини қунига 4–5 марта чайиш тавсия қилинади. Янгилгида кашнични чайнаш мумкин. Унинг ширасини сиқиб, оғизни 3–4 марта чайса ҳам бўлади.

Ноҳуш ҳид саломатлигини сездириш билан бирга, одамлар билан муносабатингизга салбий таъсир кўрсатади. Шу маънода, маслаҳатларимиз фойдали бўлади, деган умиддамиз.

Марям БЕРДИҚУЛОВА,
Жиззах вилояти ИИБ Тиббиёт
бўлими стоматолог шифокори.

4. Свежие продукты, меньше полуфабрикатов.

Важно!

Консультация с врачом: перед началом любых программ очищения организма, особенно связанных с голоданием или приемом каких-либо препаратов, проконсультируйтесь с врачом.

Постепенный подход: все изменения в рационе и образе жизни следует вводить постепенно, чтобы не вызвать стресс у организма.

Не навредить: избегайте агрессивных методов «очистки», которые могут быть вредны для здоровья. Всегда отдавайте предпочтение проверенным и безопасным способам.

★ Мы против коррупции!

СЛЕДОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОМУ ДОЛГУ



За плечами старшего следователя следственного отделения при ОВД города Каттакургана майора Шерзода Худжакулова – двенадцать лет службы, десятки расследованных дел. Его отличают профессионализм, аналитическое мышление и тонкое следственное чутье, позволяющее видеть за деталями общую картину.

в должности следователя он получил ценный практический опыт и отточил навыки, необходимые для успешного расследования преступлений. Именно там он усвоил ключевые принципы следственной работы – объективность, беспристрастность и неукоснительное соблюдение законности.

Выбор профессии для Шерзода не был случайным. Его отец, Джурахон Худжакулов, многие годы служил в органах внутренних дел.

По словам самого следователя, настойчивость и умение находить общий

язык с людьми помогают в работе.

Сегодня на его счету множество успешно расследованных уголовных дел. Одно из последних связано с выявлением факта незаконного выращивания каннабиса жителем махалли Яккабог. Мужчина предложил следователю взятку в размере 3000 долларов США, чтобы «замять» дело. Однако Шерзод Худжакулов незамедлительно сообщил о попытке подкупа руководству.

Принципиальность майора – качество, подтвержденное практиче-

скими делами. Он не раз демонстрировал неподкупность, присекая любые сомнительные предложения, целью которых являются избежание ответственности. Это подчеркивает его преданность профессии и нетерпимость к коррупции.

– Добросовестно выполнять свои обязанности, защищать права и законные интересы граждан – наш долг, – говорит майор Шерзод Худжакулов.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.

Самаркандская область.

★ В районных ОВД


БЫТЬ ПОЛЕЗНЫМ ЛЮДЯМ

Старший инспектор отдела миграции и оформления гражданства ОВД Сардобинского района старший лейтенант Сайфиддин Бекмуродов считает свою работу призванием. К служебным обязанностям относится ответственно. Обеспечивает быстрое и эффективное рассмотрение обращений граждан. Часто сам приходит к пожилым или людям с ограниченными возможностями, чтобы оформить документы.

Вот и сегодня старший лейтенант вместе с одним из коллег направился в махаллю Равот. Там необходимо оформить документ, удостоверяющий личность пожилой женщины, которой почти восемьдесят лет. Из-за болезни она не может прийти в отдел. Дом пенсионерки находится довольно далеко... Когда сотрудники вошли во двор, женщина уже ждала их на скамейке. Сайфиддин тепло поздоровался и приступил к снятию биометрических данных, затем сделал фото. Завязалась искренняя беседа. Женщина рассказала, что у нее шестеро детей, всех она женила, выдала замуж. Ранее вместе с мужем занималась земледелием. Вспоминала, что раньше получить паспорт было непросто. В 60-е годы прошлого столетия большинство сельских жителей не имели паспорта...

Пожилая женщина выразила благодарность сотрудникам. Ее вопрос был решен в тот же день – к вечеру ID-карта была готова.

Сайфиддин Бекмуродов службу в органах внутренних



дел начал в 2018 году. Работал в Акалтынском районе, городе Янгиере. В Сардобинском районном ОВД с 2023 года.

– Граждане отмечают, что работа налажена эффективно, – говорит он. – Благодаря широкому внедрению современных технологий мы можем оформлять документы, удосто-

веряющие личность, в кратчайшие сроки. Это помогает избежать длительного ожидания. Главное, чтобы люди были довольны.

Абдурахмон МУСТАФУКУЛОВ,
соб. корр.

Сырдарьинская область.



**Государство
выражает волю
народа, служит
его интересам.
Государственные
органы и
должностные
лица
ответственны
перед обществом
и гражданами.**

**Статья 2
Конституции
Республики
Узбекистан.**

USHOTLIK HAR ISHDA MOHIR

Profilaktika katta inspektori, podpolkovnik Hamid Ismoilov xizmat olib borayotgan Jondor tumanida «Ushot» mahalla fuqarolar yig'ini to'rt mingdan ortiq fuqaro yashaydi. Aholining aksariyati hunarmandchilik bilan mashg'ul.

– Hududda istiqomat qiluvchi oila boshliqlari asosan tandir yashadi. Xotin-qizlarimiz esa zarto'n, chopon, kashta tikish, ko'rpa qavish va milliy shirinliklar pishirishda mohir, – deydi podpolkovnik H. Ismoilov. – Qolaversa, dehqonchilik va chorvachilik borasida ham mahalladoshlarimiz faol. Shuning uchun ham mahallada bekorchi odamni uchratmaysiz.

Jamoat tartibini saqlashda profilaktika katta inspektoriga mahalla raisi Otabek Hamroyev, hokim yordamchisi Begzod Jumayev, xotin-qizlar faoli Zebiniso Hamroyeva, yoshlar yetakchisi Xurshid Bahriddinov, ijtimoiy xodim Umida Murodova, soliq inspeksiyasi xodimi Doston Abrorovlar yaqindan yordam berishayotganini alohida e'tirof etish joiz.

Mahallada istiqomat qilayotgan 28 nafar muqaddam sudlangan, 2 nafar spirtli ichimlikka ruju qo'ygan va 12 nafar huquqbuzarlik sodir qilgan profilaktik hisobdagi shaxslar doimiy ravishda nazorat ostiga olingan. Faollar bilan olib borilayotgan hamjihatlikdagi ishlar ancha samarali bo'lyapti. Ayniqsa, xonadonlarga borib o'tkazilayotgan turli targ'ibot va profilaktik tadbirlar natijasi o'laroq, o'tgan to'qqiz oy davomida mahallada jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi.

– Ilgari bir necha marotaba sudlangan Sh. Sobirning tuzalish yo'lga kirishida profilaktika katta inspektorimizning hissasi katta bo'ldi. U kunora Sobirning yurish-turishidan xabardor bo'lib, ota kasbini

davom ettirishini qulog'iga quyib borardi, – deydi mahalla raisi O. Hamroyev. – Ayni paytda tandir yasash bilan mashg'ul, kuniga 2–3 ta tandir sotmoqda. Daromadi ham chakki emas...

Darvoqe, «Ushot»ga turizm qishlog'i maqomi berilganiga endigina uch oy bo'ldi. Biroq yuqorida aytganimizdek, tandirsozlik hunari tufayli bu qishloq nafaqat O'zbekistonda, balki Yevropa davlatlarida ham dovrug taratdi. Turizm qishlog'ida tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun 10 taga yaqin uy mehmonxonasi ochilgan, yana 10 ta mehmonxonaning ta'mirlov ishlari olib borilmoqda.

Shuningdek, mahallaning hunarmandlar markazida zardo'zlik, kashtachilik, shirinlik va tikuv sexlari ishlab turibdi. Markaz qoshida ochilgan o'quv to'garaklarida esa xotin-qizlar hunar sirlarini o'rganib, turli sexlarda ishlayapti. Ayni paytda 250 nafar xotin-qiz ish bilan band bo'lishdi.

Qisqa qilib aytganda, profilaktika katta inspektori, podpolkovnik Hamid Ismoilov hudud aholisi osoniyatini ta'minlash yo'lida mahalla ahli bilan bir tan-u bir jon bo'lib tun-u kun xizmat qilmoqda. Uni doimo odamlar orasida uchratasiz. Shu sababli ham aholining ishonchini, hurmat-e'tiborini qozongan.

Odil UMUROV,
mayor.
Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



OSUDA TURMUSHGA ZAMIN

Biror ishni tugatmaguncha tinmaydigan Nishon tumani IIB JXX HPB 44/07-sonli tayanch punkti profilaktika inspektori, podpolkovnik Muzaffar Primov «Baynalmilal» mahalla fuqarolar yig'ini binosidagi xizmat xonasiga kirgach, kecha kechqurun tuzgan kunlik ish rejasini yana bir bor ko'zdan kechirdi. Mahalla faollari yig'ilguncha bugun amalga oshiriladigan ishlarni istiqboldagi rejalarni xayolida chamaladi.



Yig'ilishdan so'ng podpolkovnik kundalik xizmat faoliyatiga kirishdi. Dastavval muqaddam sudlanganlar bilan profilaktik suhbat o'tkazishni afzal bildi. So'ng «Xavfsiz hudud» tezkor-profilaktik tadbiri bo'yicha fuqarolar bilan targ'ibot o'tkazdi. Mahallada shubhali shaxslar yoki avtomashinalarni ko'rganda xabar berish lozimligini ta'kidladi. Shu jarayonda, ayniqsa, kiberjinoyatlardan saqlanish, firibgarlarning tuzog'iga tushib qolmaslik bo'yicha tushuntirish ishlarini ham amalga oshirdi.

Aholi gavjum yashaydigan mahallalardan biri «Baynalmilal»da 16 ta ko'p qavatli uyda 5 ming nafardan ziyod aholi istiqomat qilmoqda. Hududda istirohat bog'i, ishlab chiqarish hududi, tungi klub, to'y-xona va oshxonalar, tibbiy klinikalar, savdo majmualari, davlat ma'muriy idoralari joylashgan.

O'tgan davrda o'g'rilik va bezorilik jinoyati ko'p sodir etilgani sababli mahalla «qizil» toifada edi. Shu bois manzilli choralar belgilanib, mahalla yetiligi hamda mas'ullar bilan hamkorlikda «fuqarobay» va «xonadonbay» ishlar amalga oshirildi. Bunda asosan aholining bandligini ta'minlash, doimiy daromad manbasi bilan ta'minlash choralari ko'rildi. Qolaversa, aholi o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib boruvchi «Mahalla targ'ibotchisi» jamoatchilik guruhlari tashkil etildi. Ijtimoiy profilaktika obyektlari, ayniqsa, oila-turmush doirasida huquqbuzarliklar sodir etuvchi janjalkash va nizoli oilalar alohida o'rganilib, ular bilan muntazam tarzda profilaktik ishlar yo'lga qo'yildi.

Mahallada namunali ko'cha, namunali yo'laklar tashkil etildi. Kirishchiqish va aholi gavjum joylarga 124 ta videokuzatuv kamerasi, bir nechta tashvish va SOS tugmalari, quyosh batareyasi orqali ishlaydigan 38 ta tungi yoritish chirog'i

o'rnatildi. O'rnatilgan videokameralar, tashvish tugmalari profilaktika inspektori xizmat xonasiga va situatsion markazga integratsiya qilindi. Ana shunday manzilli ishlar samarasi o'laroq, mahalla joriy yilning avgust oyidan boshlab «qizil»dan «sariq» toifaga o'tdi. Ayni chog'da, mahallani «yashil» toifaga o'tkazish borasidagi ishlar jadal davom etmoqda.

– Inson biror foydali ish bilan mashg'ul bo'lmasa, albatta, iqtisodiy tanglikka duch keladi. Oqibatda bilib-bilmay jinoyatga qo'l urishi muqarrar, – deydi podpolkovnik Muzaffar Primov. – Biz mahalla faollari bilan ana shunday salbiy holatlarning oldini olish va bunday illatlarga barham berish maqsadida yig'in hududidagi tadbirkorlar ishtirokida uchrashuvlar tashkil etyapmiz.

Darhaqiqat, bu yil «Ayollar daf-tari»da ro'yxatga olingan 22 nafar xotin-qizning bandligi ta'minlandi. Ulardan bir guruhi kasb-hunarga o'qitilib, ishga joylashtirilgan bo'lsa, 8 nafariga yordam pullari berildi. Xuddi shunday, «Yoshlar daftari»dagi Shahro'za Arziyeva, Ozoda Bahriddinova, Sayid Abashov va Ulug'bek Nurmatovga imtiyozli bank krediti olib berilgach, ular chorvachilik, tikuvchilik, hunarmandchilik, mebel yasash sexi faoliyatini yo'lga qo'ydi. Buning natijasida yigirma nafardan ortiq yoshlarning bandligi ta'minlandi. Ayni jarayonda 5 nafar muqaddam sudlangan, 9 nafar probatsiya nazoratidagi shaxsning ijtimoiy ahvoli o'rganilib, aniqlangan muammolarini bartaraf etish choralari ko'rildi. Ular bilan profilaktik ishlar muntazam olib borilishi natijasida qayta jinoyat sodir etilishining oldi olindi.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.





O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 19-modda.

JAZONI IJRO ETISH TIZIMIDA

BU SOHANING NONI QATTIQ(MI)?..

Kuzatishlarimizdan shuni bilamizki, aksariyat ota-onalar farzandlari o'zlarining izidan borishini unchalik xohlashmaydi. Ayniqsa, ichki ishlar organlari xodimlari hayotida bezovta kunlar ko'p bo'lganligi bois, kasb tanlash fursati bolalariga kelganida: «Bu sohaning noni qattiq», – deb o'z sohasidan uzoqlashtirishga harakat qiladi. Ammo ko'p yillar ushbu tizimda xizmat qilgan mayor Faxriddin Allayorov bunday yo'l tutmadi. O'g'li Ulug'bekda ota kasbiga havas borligini bilganida, shashtini qaytarmadi. Faqat:

– Sen tanlagan kasb sohiblari boshqa soha egalariga qaraganda ikki hissa mas'uliyatliroq bo'lishlari kerak, – deya o'zi bosib o'tgan yo'l-larning baland-pasti haqida ro'yiost gapirdi. – Sevgan kasbingda ishlasang, rohat tuyasan, charchamaysan, zo'r dan zo'r bo'lishga intilasan, – dedi.

Otaning so'zlari Ulug'bekka katta dalda bo'ldi va 2020-yildan ichki ishlar organlari tizimida faoliyatini boshladi. Dastlab Navoiy shahridagi 4-son JIEKda psixolog bo'lib ishladi.

– Ota-ona ishonchini oqlash – har bir farzandning orzusi bo'lsa kerak, – deydi qahramonimiz. – Ular bolaligimda mening har tomonlama kamol topishim, o'z ustimda ishlashim uchun hatto shaxsiy kutubxona tashkil qilib berishgan. Otamdan halol va to'g'riso'z bo'lish, har lah-zadan unumli foydalanishni o'rgandim. Balki, shular sababdanmi, faoliyatim davomida hech qachon qiynalmaganman.

Ulug'bek Farmonov soha sirlarini o'rganishda tajribali ustozlar ko'magiga suyanadi. Ayniqsa, iste'fodagi podpolkovnik Farhod Ermamatov, 4-son JIEKda xizmat qilayotgan mayor Orif Barakayev, ayni paytda Departamentda faoliyat



olib borayotgan podpolkovnik Sarvar Sharipov hamda mayor Zafar Rajabovning maslahat va tavsiyalariga amal qiladi.

– Faoliyatim davomida esda qolarli voqealar juda ko'p bo'lgan, – deydi lavhamiz qahramoni. – Qotillik jinoyati sodir etib, uzoq yilga ozodlikdan mahrum etilgan Omadbek ismli yigit bilan uzoq ishlaganman. Uning o'sha paytlari ruhiy holati juda achinarli edi. «Ota-onamning yuzini yerga qaratdim», – deya tinimsiz o'zini ayblardi. Psixologik suhbatlar va treninglar natijasida ruhiyatini yengillatishga erishdim. Hozirda uning ahvoli yaxshi. «Ozodlikka chiqsam, ota-onamni

Umra safariga o'zim birga olib boraman», – deb niyat qiladi. Uning ruhan o'zini o'nglab olishida mening ham qisman bo'lsa-da, hissam borligidan quvonaman.

Katta leytenant Ulug'bek Farmonov ayni paytda IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish boshqarmasi Psixologik ta'minlash guruhi bosh psixologi lavozimida ishlab kelmoqda.

– Ota-onam meni tinmay olg'a intilishga undovchi motivatsion kuchdir. Hayotimda biror yutuqqa erishsam, darhol ular bilan bo'lishaman. Nimadir ish boshlamoqchi bo'lsam, maslahat so'rayman. Faoliyatimda kichik bir muvaffaqiyatga erishsam ham, ota-onam bundan juda xursand bo'lishadi. Do'st-u yorlarga, qarindosh-urug'larga qo'ng'iroq qilib, zavq-u shavqqa to'lib gapirishadi. Bundan shu qadar qattiq ta'sirlanamanki, umrim davomida har doim ota-onamni quvontiradigan ishlar qilaman, deya o'z-o'zimga so'z beraman, – deydi lavhamiz qahramoni.

Ulug'bek ota-onasi bilan birga istiqomat qiladi. Har tong xizmatga otlar ekan, albatta, ularning duolarini oladi. Turmush o'rtog'i va ikki nafar qizi esa mehr-la kuzatib qolishadi.

Har gal qo'limga qalam olib, qadamlari shaxdam, ko'zlarida hamisha olov chaqrab turadigan yosh xodimlar haqida maqola yozar ekanman, yuragimda cheksiz faxr hissi-ni tuyaman. Tizimda faoliyat olib borayotgan Ulug'bek Farmonov kabi o'z kasbiga mehrli, sadoqatli, fidoyi yoshlar mash'al kabi doimo yonib tursin!

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

O'QISHNI TAVSIYA QILAMAN

«KOD BUZAR» – YAXSHI TANLOV

2023-yilda nashr etilgan kitoblar ichida «Kod buzar» alohida ajralib turadi. Genetika qanchalik katta yutuqlarga erishganini, Nobel mukofotining qanday qo'lga kiritilishi, buyuk olimni tarbiyalash va AQSHda ilmiy muhit qanaqa ekani, ilmiy laboratoriyalar o'rtasida raqobat qanday kechishi haqidagi savollarga javob beruvchi mazkur kitob o'zbek kitobxonlari uchun ajoyib sovg'a bo'ldi.


Asar muallifi Uolter Ayzekson Nobel mukofoti sovrindori Jennifer Daudna va uning hamkasblari kasalliklarni davolash, viruslardan himoya qilish va sog'lom chaqaloqlarga ega bo'lish imkonini beradigan inqilobni qanday boshlagani to'g'risida qiziqarli hikoyalarni keltiradi.

1953-yil DNK strukturasi kashf etilgach, barcha jonzoatlarning hayot kodi ma'lum bo'ldi. Bu misli

ko'rilmagan kashfiyot edi. Galdagi qadam ana shu kodni o'zimiz yoza olishimiz, uni buzib, qayta tahrirlashni o'rganish edi. Negaki, hayot kodini qayta yoza olsak, biz nafaqat turli tug'ma genetik kasalliklardan va saratondan xalos bo'lishimiz, balki tanamizni istalgan shaklda – rangimiz, mu-shaklarimiz hajmi, kasallikka qarshi immunitetimizni o'zgartirishimiz mumkin bo'lardi. Uolter Ayzekson genetik kodni buzishga katta hissa qo'shgan olim Jennifer Daudnaning faoliyati, tadqiqotlari haqida hikoya qilar ekan, shu bahonada gen muhandisligi vujudga kelishi jarayonidagi murakkabliklar, axlo-qiy masalalar, olimlar o'rtasidagi raqobatlar, ilmiy kashfiyot va ixtirolar qanday qilinishini o'quvchiga qiziqarli shaklda so'zlab beradi.

Aminimizki, siz uchun ham ushbu kitob mutolaa uchun eng yaxshi tanlov bo'ladi.

Mansur SAIDOV,
mayor.



Muston (ismlar o'zgartirildi) umrining oxirigacha qotil sifatida vijdoni azobda o'tishini angladi. Shu sababmi, o'zidan gunohlarni soqit qilmoq uchun vaj qidira boshladi. O'sha to'yga bormaganlarida, ichmaganlarida, Qo'zi Xurramning jig'iga tegmaganida hozir bu yerda o'tirmagan bo'larmidi...

Hammasi Forish qishloqlaridan biriga uzatilgan Nigora o'g'lini uylantirayotganini bildirib, taklifnoma jo'natishidan boshlandi. To'yga Abror, Aslbek va Muston boradigan bo'ldi. Abror muallim hamkasbi Qo'zini yolladi.

To'y bo'lar kuni ular bilan birga Qo'zining o'g'li ham borajagi ma'lum bo'ldi. U harakatini «Senlar ichsanglar, men so'ljayib o'tiramanmi, qaytishda mashinani o'g'lim haydaydi», deya izohladi. Ketar chog'i Abror Xurramni olib ketish taklifini bildirdi. Bu gap Mustonga ma'qul keldi, kira haqqi uchga bo'linadi.

Hovlisida mosh tozalayotgan Xurramni ko'ndirish oson bo'lmadi. Bechoraning bolasi yo'q, shundanmi, gap-so'zdan qochib, elga qo'shilmaydi. Xullas, sinfdosh hurmati

va oqibat haqida gapira-gapira uni borishga ko'ndirishdi.

To'yda g'allaorollik mehmonlar obdon siylandi. Xurram va Qo'zining o'g'li aroq ichmadi, qolganlar cho'lida suvsiz qolgan tuyadek nafsini qondirdi. Kelishda 4 kishi siqqan «Cobalt»ning orqa o'rindig'i endi torlik qila boshladi. Mast Qo'zi o'g'liga rulni topshirib, orqaga o'tirgani uchunmi, qitmirligi tutdi. Xurram kelmasa, bemaol

dikor... topgani ro'zg'oridan ortmaydi. Uyidagilari aytmog'chi, kamroq ichsa, ishi o'nnglanib ketarmidi?»

Uning tashvishli o'ylarini Xurramning: «To'xtat mashinani, tushib qolaman!» degan so'zlari bo'lib yubordi. Bechoraning sabr kosasi

to'lgandi.

Agar Qo'zi uning jig'iga tekkanidami, allaqachon jag'ini ikkiga ayirib tashlardi.

Xurram rostdan tushib qoldi. Ozroq yurganlaridan keyin miq etmay kelayotgan Aslbek: «Birga keldikmi, birga qaytaylik», deya avtoullovni ortga qaytardi. Bir amallab Xurramni mashinaga chiqarishdi. Qo'zi uni yana egovlay boshladi. Bu gal uning bolasi yo'qligi, farzandga ehtiyoj sezsa, yordam qilajagiga pismiqlik bilan ishora qildi.

Xurram bu gapni hazm qilolmadi. Dahanaki janjal sabab avtoullov to'xtadi. Ular mashinadan tushib, yoqalasha boshladi. Muston darhol sinfdoshining tarafini oldi. Qo'zining tomog'idan bo'g'a boshlagan ham edi, Xurram ularni ajratmoqqa chog'landi. Bu Mustonning g'ashini keltirdi. O'zini himoyalayotgan odamga qarshi chiqyaptimi? Keyin ichida to'plangan zaharni Xurramga sochdi. «Hammasiga sen aybdorsan» degancha do'stining yuziga ikki musht tushirdi. Ilkis zarbalardan o'zini yo'qotgan Xurram orqaga yi-

qildi. Qarsillab urilgan bosh tagidagi asfalt uzra qon sizdi.

Hammaning kayfi tarqab ketgandi. Birov ko'rib qolmasligi uchun hushsiz Xurramni darrov mashinaga chiqarishdi. «Cobalt» harakatga kelishi bilan Muston vaziyatni qo'lga oldi: «Men atay qilganim yo'q. Qo'zi, sen janjal boshlamaganingda bu ishlar yo'q edi, endi yo'ldagi do'kondan aroq olib, buning og'ziga quyamiz va o'zi asfaltga yiqildi, deymiz. Agar meni birontang sotsang, hammangni o'zim bilan jarga tortaman».

«Do'stlar» hushsiz jabrlanuvchini kasalxonaga yetkazish o'rniga, «Mastligi tufayli yiqilib tushdi», deya uyiga tashlab ketishdi. Xurramning yaqinlari uni zudlik bilan tuman tibbiyot birlashmasiga olib borishdi.

Tabiiyki, shifokorlar holat haqida ichki ishlar organiga xabar berishdi. O'z navbatida, o'tkazilgan tibbiy ekspertiza og'ir jarohatlar sababi oddiy yiqilish emasligini ko'rsatdi. Mutaxassislar jabrlanuvchining aroq ichganiga ham shubha bildirdi. Ammo tergov davomida Muston ham, ushbu jinoyatga guvoh bo'lganlar ham «Xurram to'yda aroq ichib, yo'lda yiqildi», deb turib oldi. Bu paytda ichki ishlar organlari xodimlari ko'ngilsizlik ishtirokchilari haqida atroflicha ma'lumot to'playotgandi. Jumladan, to'y videotasvirlari ko'zdan kechirildi.

Nihoyat, guvohlardan biri yorildi. Shu bois bor diqqat Mustonga qaratildi. U ko'rsatma va dalillar qarshisida illosiz qolib, aybini tan olishga majbur bo'ldi. Bu orada Xurram o'ziga keldi. Biroq umri qisqa ekan, 8 oy deganda hayotdan ko'z yumdi...

Bobomurod ERKINOV,
mayor.

Jizzax viloyati.

TO'YDAN KEYIN...

...Qo'zi, sen janjal boshlamaganingda bu ishlar yo'q edi, endi yo'ldagi do'kondan aroq olib, buning og'ziga quyamiz...



XORIY TAJRIBASI

BRAZILIYA POLITSIYASI

Braziliyada politsiya rasman 1808-yilda tuzilgan deb qaraladi. Lekin mamlakatda zamonaviy politsiya 1944-yilda shakllantirilgan va dastlab Jamoat xavfsizligi Federal departamenti deb nomlangan. 1967-yildan boshlab Federal politsiya deb atala boshlangan. Tarkibiga penititsiar (sud ijro), federal yo'l, dengiz politsiyasi kiradi. Poytaxt va Braziliya okrugi politsiyasi to'g'ridan-to'g'ri federal hukumat tomonidan moliyalashtiriladi.

Federal politsiya shtatlar markazlarida 27 ta hududiy boshqarmaga ega. Shuningdek, unga 95 ta bo'linma, 12 ta chegara zastavasi, 12 ta dengiz bazasi bo'y-sunadi.

Politsiya tarkibidagi Taktik operatsiyalar qo'mondonligi 1987-yilda tuzilgan. Yaxshi tayyorlangan qurolli tuzilma terrorizm, narkobiznes, jinoiy tuzilmalarni yo'qotish kabi vazifalarni bajaradi.

Dengiz politsiyasi Braziliyaning 12 ta port shahrida tashkil etilgan. U dengiz kemalari, Amazonka daryosi bo'ylab yuklarning xavfsiz tashuvini ta'minlash, qirg'oq bo'ylarini qo'riqlash



vazifalarini bajaradi. Bundan tashqari, Braziliyaning barcha shtatlarida fuqarolik politsiyasi faoliyat ko'rsatadi. Uning vazifasi jinoyat ishlarini tergov qilishdan iborat.

Politsiya komissarlariga jinoyatchilikka qarshi kurashish, hibsga olish va tintuv qilishga order olish kabi vakolatlar berilgan. Tezkor xizmat va jinoyat qidiruv faoliyati esa federal agentlar zimmasiga yuklatilgan.

Federal politsiyasidagi har qanday lavozimni egal-

lash uchun bakalavr darajasi va uch yillik staj talab etiladi. Shuningdek, tizimda notarius, daktiloskopist, kriminalistlar ham faoliyat ko'rsatadi. Bu mutaxassisliklar uchun huquqshunoslik yoki sohaga oid mutaxassislik diplomi zarur. Federal politsiyaga ishga kirish mamlakat yoshlari uchun sharaflil va shuning uchun ham talabgorlar soni ko'p.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV
tayyorladi.



■ Ферганская область

ВНЕДРЯЯ НОВЫЕ ПОДХОДЫ

Накануне Дня сотрудников органов внутренних дел в торжественной обстановке был сдан в эксплуатацию новый оперативный центр управления при УВД Ферганской области. В целях эффективного использования возможностей центра и обеспечения его интеграции с территориальными подразделениями был организован практический семинар.

В нем приняли участие начальники городских и районных управлений и отделов внутренних дел области, их заместители, а также специалисты по цифровизации.

Было проанализировано состояние цифровизации в разрезе городов и районов. Отмечалось, что за последние два года в целях стабилизации криминогенной обстановки в махаллах установлено более 20 тысяч современных



домофонов, в подъездах – 627 тревожных кнопок, порядка 18,4 тысячи домов взяты под

техническую охрану. Во всех городских и районных отделах внутренних дел созданы ситуационные центры, видеокamеры интегрирова-

ны в единую систему. В результате значительно улучшились показатели раскрываемости преступлений и задержания лиц, находящихся в розыске.

– Борьба с преступностью с использованием мирового опыта и цифровых технологий – требование времени, – отметил начальник ОВД Ферганского района подполковник Муроджон



камер наблюдения, в торговых центрах и рынках – более 800, в школах и дошкольных учреждениях – свыше 2,5 тысячи.

В многоквартирных домах установлено более трех тысяч современных



Кундузов. – Во время семинара специалисты дали методические рекомендации по устранению недостатков, возникающих на практике.

Абдувосит СИДИКОВ,
соб. корр.



МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(24 – 30 ноябрь)



Қўй (21.03 – 20.04). Ишда ҳал бўлмаётган ҳар қандай масалалар бу даврда осонликча ўз ечимини топади, шунингдек, мушкул вазифаларни тез орада йўлга қўйишга, тўпланиб қолган муаммоларни бартараф этишга эришасиз.



Бузоқ (21.04 – 20.05). Жамоавий фаолиятда доим иштирок этинг, сиздаги фаоллик ва шижоат кўпчиликка маъқул келади. Ҳар қандай вазиятда ўзингизни тутиб, оғирроқ бўлишга ҳаракат қилинг. Бу давр янги режалар тузиш ва уларни амалга ошириш йўллари излаш учун жуда қулай.



Эгизаклар (21.05 – 21.06). Айни дам ҳаётингизда жадал ривожланиш жараёни кетмоқда. Эски қарашларни ўтмишда қолдирганингиз маъқул. Танқидни холислик билан қабул қилинг, йўл-йўлакай хатоларни тузатиб кетишга ўрганинг. Яқинларингиз билан келишиб қарор қабул қилишга одатланинг.



Қисқичбақа (22.06 – 22.07). Ечимини ортга суриб юрган муаммоларни ҳал этиш учун қулай давр. Уйку ва дам олиш тартибига риоя қилишни унутманг. Бу ҳафтада молиявий тушумлар кузатилади, шунинг учун кўпдан бери орзу қилган нарсаларни бемалол харид қилишингиз мумкин.



Арслон (23.07 – 23.08). Ушбу кунларда амалга оширилган таваккалчилик кўпинча омад келтиради. Фақат шошма-шошарликка йўл қўйманг. Бу ҳафта можаролар, келишмовчиликлар ва баҳс бойлашлардан йироқ туринг. Дам олиш кунларини оила аъзоларингиз даврасида ўтказинг.



Паризод (24.08 – 23.09). Сиздан касбий соҳа ва бизнесда ўз устида ишлаш талаб этилади. Зўр ғайрат ва иштиёқ билан меҳнат қилиб, ҳақ қозонинг, ижодий ғояларни ҳаётга татбиқ этинг. Уй-рўзғор ишларини кейинга қолдирманг. Нима билан шуғуллансангиз ҳам ҳар қандай олинган натижадан қувонишга ҳаракат қилинг.



Тарози (24.09 – 23.10). Бу ҳафтада ижодий ишлар билан банд бўласиз. Бир талай тушунмовчилик ва кўнгилсизликлар ортда қолади. Ҳафтанинг биринчи ярми иккинчисига қараганда хотиржам кечади. Дам олиш кунлари яқинларингиз хонадониде меҳмон бўлинг.



Чаён (24.10 – 22.11). Бу ҳафта моддий ҳолатни анчайин яхшилаб олиш учун барча имкониятларни тақдим этади. Ҳаётингизга ижобий таъсир кўрсатадиган одамлар билан танишиш эҳтимоли юксак. Шанба куни ўта ишонувчанлик сизга панд беради. Якшанба куни ҳар жабҳада ижобий натижалар кутилмоқда.



Ўқотар (23.11 – 21.12). Бу ҳафта молиявий масалада тежамкор бўлишга ҳаракат қилинг, пулларни биринчи учраган иш учун беҳуда сарфламанг. Чоршанба куни янги танишлар орттирилиши, фойдали алоқалар ўрнатилиши кутилмоқда.



Тоғ эчкиси (22.12 – 20.01). Кутилмаган даромад ҳаётдаги эҳтимолий ўзгаришларни енгил бошдан кечиришга ёрдам беради. Бўш вақтларингизни яқин дўстларга бағишланг. Улардан баъзиларининг ҳаётида оғир давр кечаётган бўлиши ва бунда фақат сизнинг ёрдамингиз тегиши мумкин.



Қовға (21.01 – 19.02). Бу ҳафта саломатлик билан боғлиқ баъзи муаммолар юзага келиши мумкин. Ушбу даврда молиявий йўналишдаги, айниқса, бошқа одамлар ёки ҳамкор шериклар билан боғлиқ масалаларни имкон қадар ортга суриб туринг. Мисол учун, ишга оид ташвишлар бироз кутиб туриши мумкин.



Балиқ (20.02 – 20.03). Ўтиб кетган кўнгилсиз воқеаларни ёдга олиб қайғуга ботишни тўхтатинг. Дунёга гўзал нигоҳ билан боқинг. Бизнес фаолиятида ҳисоб-китобда адашишдан эҳтиёт бўлинг. Муҳим ҳужжатларга имзо қўйишда сергакликни қўлдан берманг. Саломатликни янада мустаҳкамлаш учун кечкурунлари узоқ вақт пиёда сайр қилиш тавсия этилади.



BIRNIKI MINGGA...

Sirdaryo viloyati IIB JXX JTSB Karantin tadbirlarini ta'minlash guruhi safdor xodimi, safdor Jumaboy Yakubov 2013-yildan buyon ichki ishlar organlarida hozir xizmat qiladi. U Sirdaryo va Toshkent viloyatlari oralig'idagi «Sayxun» blok postida faoliyat ko'rsatadi.

Safdor Jumaboy Yakubov deyarli har kuni oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib beruvchilar bilan muloqot qiladi. Har kuni bir necha tonna go'sht, baliq, sut mahsulotlarini ko'zdan kechiradi. Shuning ortidan go'sht qaysi hayvonniki, baliq qaysi havzanikiligi aniq ajratib oladigan darajaga yetgan. Ayniqsa, poytaxtga yaroqsiz go'sht olib kirishdek qing'ir ishni ko'zlagan shaxslarning nayrangini u juda yaxshi biladi.

Joriy yilning avgust oyida tunda Qashqadaryo viloyatidan kelayotgan «Cobalt» rusumli avtomashina to'xtatilib tekshirilganida, haydovchi B.Erkinov (ism-shariflar o'zgartirildi) 100 kilogramm mol go'shtini Toshkentdagi «Qo'yliq» bozoriga olib ketayotgani ma'lum bo'ldi. Jumaboy Yakubov go'shtni nazoratdan o'tkazish paytida go'shtning tag qismiga to'shalgan qoplama odatdagidan balandroqdek tuyuldi va nimadir borligini sezib qoldi. Qoplamaning ko'tarib ko'rishganida

bu yerdagi mol go'shtidan noxush hid anqib turardi. 250 kilogramm go'sht laboratoriyada tekshirilganida sarg'ish-ko'kimtir tusdagi go'sht iste'mol uchun butunlay yaroqsizligi ma'lum bo'ldi. Surishtiruvlar esa ushbu go'sht mahsuloti kasallik sababli o'lgan molning go'shti ekanini, u arzimagan pulga sotib olingani aniqlandi.

– Xizmat paytimizda bunday salbiy holatlarga ko'p duch kelishimiz ko'ngilni xira qiladi, albatta, – deydi lavhamiz qahramoni. – Bu hali-hanuz oramizda pul uchun harom-xarishdan tap tortmaydiganlar mavjudligidan dalolat beradi. Shuning uchun sifatli mahsulotlar aylanmasi va sotilishining oldini olishda bundan keyin ham zo'r qat'iyat bilan xizmat qilamiz.

Karantin tadbirlarini ta'minlash guruhi tarkibida dehqon bozorlaridagi holatlarni ham nazorat qiladigan safdor Jumaboy Yakubov vijdoniga xiyonat qilmaydigan ko'plab insonlarga duch keladi. Birniki mingga, mingniki tumanga deganlaridek, birgina egri shaxs yuzlab ana shunday halol insonlarning ezguligiga soya solishidan afsuslanadi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

MASHAQQATLI MASHQLAR MEVASI

Asli qoraqalpog'istonlik Jaksilik bolaligidan sportga oshno bo'lib o'sdi. O'quvchilik yillarida kurash, qo'l jangi bilan shug'ullandi. Qishloq to'ylarida kurash tushib, mahoratini oshirdi. IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli harbiy qismda yigitlik burchini o'tash davrida ham mashg'ulotlarni kanda qilmadi, o'z ustida muntazam ishlab, chiniqdi.

IIV Qorovul qo'shinlariga hujjatlarini topshirgan lavhamiz qahramoni 2018-yili Qarshi shahridagi 7533-harbiy qismda, nazoratchi o'qchi vazifasida xizmatni boshladi. Berilgan topshiriqlarni bekor-ko'st bajarib, tirishqoqligi, o'z ustida ishlashi bilan e'tiborga tushdi. Bunda, albatta, ustoz – harbiy qism 4-batalyoni komandiri, mayor R.Bozovning hissasi ham katta bo'ldi.

joy oldi va ko'krak nishoni sohibi bo'ldi. Joriy yilning mart oyida esa «Harbiy sportchi» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

– Xizmatda ozmi-ko'pmi yutuqlarga erishishimda murabbiylarim, tajribali hamkasblarim bergan o'gitlar muhim o'rin tutadi, – deydi 3-darajali serjant Jaksilik Yagshibayev. – Hozir ham ustozlarim o'gitlaridan xizmat faoliyatim



– 3-darajali serjant Jaksilik Yagshibayev tezda jamoaga qo'shilib ketdi. Qisqa vaqt ichida hamkasblari o'rtasida hurmat-e'tibor qozondi, – deydi harbiy qismning jismoniy tayyorgarlik va sport boshlig'i, kapitan Sardor Shovriqov. – U xizmat vazifalariga sidqidildan yondashadi. Intizomliligi, mehnat-sevarligi bilan ajralib turadi. Ana shu fazilatlar tufayli u munosib yutuqlarga erishib kelmoqda.

Jaksilik Yagshibayev 2023-yilda Qorovul qo'shinlarida o'tkazilgan «Dovyurak jangchi» intensiv sinovlarida ishtirok etib, g'oliblar safidan

davomida dasturilamal sifatida foydalanib kelaman. Xizmat davomida shogirdlar tayyorlab, yosh askarlarning kasbiy, jangovar va jismoniy tayyorgarligini oshirishga o'z hissamni qo'shish uchun as-toydil harakat qilaman.

Jaksilik turmush o'rtog'i Nilufarxon bilan bir nafar farzandini tarbiyalab, voyaga yetkazishyapti. Otasi Seytbay aka va onasi Raya opa esa o'g'lining baxt-u kamolini ko'rganlaridan xursand.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



**KECHA
VA
BUGUN**

**Navoiy viloyati
Konimex tumani
IIB tergov-tezkor
guruhi.**





QO'SHQANOT POSBONLAR

«Oilada hamjihatlik bo'lmasa, uni baxt tashlab ketadi», – deyilgan qoraqalpoq maqollarining birida. Oilada totuvlik va inoqlikning bardavom bo'lishi esa ikki dil rish-tasining bir-biriga payvasta ekanligiga bog'liq. Lavhamiz qahramonlari – safdor xodimlar Firdavs Yakubov va Munavvara Rahmatova jamiyatning mo'jazgina bir bo'g'inini barpo etish barobarida el-yurtimiz tinchlik-osoyishtaligini ta'minlashda ham birgalikda kamarbasta bo'lib kelishmoqda.

– Ikkimiz ham Buxoro davlat universitetida tahsil olganmiz, – deydi Firdavs. – Oliygo'hnini bitirgach, men avvaliga sport sohasini tanlab, Olimpiya zaxiralari kollejida yengil atletika bo'yicha murabbiy bo'lib ishladim. Bir necha marotaba O'zbekiston va Osiyo chempioni bo'ldim. Shogirdlarim orasidan ham anchagina chempionlar chiqqan. Munavvara esa ichki ishlar organlari tizimini tanladi. U 2022-yildan buyon Buxoro shahar IIOFMB JXX JTSB PPX



otryadi inspektori lavozimida faoliyat ko'rsatyapti. Birga turmush qurdik. Farzandli bo'ldik. Ayolim ham kasbini, ham ro'zg'orni eplay olayotganini ko'rib, shu sohaga qiziqishim ortdi. Joriy yil boshida viloyat IIBga ariza bilan murojaat qildim. Hozirda viloyat IIB JXX JTSB PPX batalyoni maxsus otryadi inspektori lavozimida faoliyat ko'rsatyapman.

Safdor Firdavs Yakubov katta serjant Bekzod Zaripovdan soha sir-asrorlarini qunt bilan o'rgandi. Ustozining maslahatlari, kezi kelganda talabchanligi juda asqatib, kasb mahoratini oshirib bormoqda.

Safdor Munavvara Rahmatova PPX otryadining namunali inspektorlaridan biri. U tirishqoqligi, xushmuomalaligi, topshiriqlarni bekam-u ko'st

uddalashi bilan rahbariyat nazariga tushgan. Barcha madaniy va sport tadbirlarida, o'quv mashg'ulotlarida faol ishtirok etadi. Xizmatda yuqori ish natijalariga erishgani uchun bir necha bor rag'batlantirilgan. Uzoqqa bormaylik, shu yilning 24–26-sentabr kunlari Toshkent shahrida o'tkazilgan «Kasbiy olimpiada o'yinlari» ko'rik-tanlovida birinchi o'rinni egalladi va «Kasb a'lochisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi

– Xizmat vazifalarimni bajarishdan tashqari, bo'sh vaqtlarimda sport bilan ham muntazam shug'ullanib kelyapman, – deydi Firdavs so'zini davom ettirib. – Ayni paytda noyabr oyida o'tkaziladigan IIV kubogi musobaqasida 100 va 400 metr masofada yugurish bo'yicha tayyorgarlik ham ko'ryapman.

Ko'rib turganingizdek, qo'shqanot posbonlar xizmat bilan bir paytda doimgiday sportda ham muvaffaqiyatlarga erishib kelishyapti. O'ylaymizki, bundan keyin ham yutuqlar shohsupasini zabt etib, xizmatdan obro' topaverishadi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.



Yangi O'zbekiston – yangi inshootlar



Suratda: Toshkent shahar IIBB XTTB HPG profilaktika inspektorlari – katta leytenantlar Humoyun Mirzatillayev, Farangiz Ergasheva va Nurbek O'roqov.

MUASSIS: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari

podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir

Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar

Gulnoza TURG'UNBOYEVA
Radik TUMPAROV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 3234.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
45039 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.

Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.